

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

IQTISODIYOT FAKULTETI

«Ishlab chiqarishda buxgalteriya hisobi» kafedrası

«HIMOYAGA TAVSIYA ETILADI»

**«Ishlab chiqarishda buxgalteriya hisobi»
kafedrası mudiri**

_____ i.f.n. dots. G.J.Jumayeva

« ____ » _____ 2019 yil

« TASDIQLAYMAN»

**«Iqtisodiyot» fakulteti dekani
_____ v.v.b. K.M.Mirzayev**

« ____ » _____ 2019 yil

**G’AZNACHILIK HUDUDIIY BO’LIMLARIDA DALAT BYUDJETI G’AZNA
IJROSINING BUXGALTERIYA HISOBONI TASHKIL ETISH MASALALARI
(QARSHI SHAHAR G’AZNACHILIK BO’LIMI MISOLIDA).**

MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

BAJARDI: “BH va A” ta’lim

yo‘nalishi bitiruvchisi IV kurs B-164-15

guruh talabasi _____ Sh.U.Qahramonov

ILMIY RAHBAR:

«ICHBH» kafedrası katta o‘qituvchisi

_____ Sh.B.Butunov

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi

_____ sonli bayonnoma « ____ » _____ 2019 y.

QARSHI-2019 yil

MUNDARIJA

KIRISH	3
I-BOB. G'AZNACHILIK HUDUDIY BO'LIMLARIDA DALAT BYUDJETI G'AZNA IJROSINING BUXGALTERIYA HISOBONI TASHKIL ETISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI	6
1.1. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosini amalga oshirishda g'aznachilik organlarining o'rni va roli	6
1.2. Gaznachilik hududiy bo'limlarida Dalat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisoboni tashkil etish va uning ahamiyati	12
II-BOB. G'AZNACHILIK HUDUDIY BO'LIMLARIDA DALAT BYUDJETI G'AZNA IJROSINING BUXGALTERIYA HISOBONI TASHKIL ETISHNING AMALIY JIHATLARI	20
2.1. Qarshi shahar g'aznachilik bo'limida Dalat byudjet g'azna ijrosi daromadlarini hisobga olish	20
2.2. Qarshi shahar g'aznachilik bo'limida Dalat byudjet xarajatlari kassa ijrosi hisobi	30
2.3. Qarshi shahar g'aznachilik bo'limida Dalat byudjet ijrosi natijalari hisobi va hisotlari	38
III-BOB. G'AZNACHILIK HUDUDIY BO'LIMLARIDA DALAT BYUDJETI G'AZNA IJROSINING BUXGALTERIYA HISOBONI TAKOMILLASHTIRISH	50
Xulosa va takliflar	54
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	56

Kirish

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida Davlat moliyasi sohaida bir qator iqtisodiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Xususan, respublikamiz mustaqillikka erishgach bozor iqtisodiyoti tamoillariga asoslangan Davlat moliyasi tizimi shakllana boshladi. Respublikada tuzilmaviy va huquqiy o'zgartirishlar amalga oshirildi, yangi idoralar va vazirliklar tashkil etildi, me'yoriy–huquqiy xujjatlar ishlab chiqarildi.

Shubhasiz, bu islohatlarni amalga oshirishda davlat byudjet tizimini to'g'ri tashkil qilmasdan erishib bo'lmadi. Bunda davlat byudjeti daromadlarini shakllanishini nazorat qilish, soliqlar va boshqa yig'implarni davlat g'aznasiga o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash, davlat byudjetidan qilinadigan xarajatlarni o'z guruhlari va moddalari bo'yicha sarflanishini nazorat qilish muhim iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Hukumatimiz tomonidan davlat byudjeti ijrosini ta'minlashni rivojlantirish va samaradorligini oshirish maqsadida g'aznachilik tizimini tashkil etilishi va tez fursatda amaliyotga joriy qilinishi bu sohani ham jahon standartlari darajasiga olib chiqdi.

Bizga ma'lumki, Davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobi tizimiga va o'z navbatida byudjet hisobiga qo'yiladigan talablarni sohalar bo'yicha qarab olishga va yanada e'tiborni kuchaytirilishiga olib keldi. Demak, g'aznachilik hududiy bo'limlarida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilmasdan turib Davlat byudjeti holatini aniqlab bo'lmaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan xolda bitiruv malakaviy ish bugungi kunning eng dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik hududiy bulimlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilinishini atroflicha o'rganish va uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda bu hisobni soddalashtirish va avtomatlashtirish imkoniyatlarini izlashdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining oldiga ko'yilgan vazifalar quyidagilar:

➤ G'aznachilik hududiy bo'limlarida yuritiladigan buxgalteriya xisobining vazifalari va ularga qo'yiladigan talablar xaqida ma'lumot berish;

➤ G'aznachilik hududiy bo'limlarida Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari ijrosining hisobga olishga doir buxgalteriya xujjatlari va hisob registrlari bilan birma-bir tanishtirish;

➤ byudjet mablag'larini tasarruf qiluvchilar va maxalliy byudjetda turuvchi byudjet tashkilotlarida moliyalashtirish xisobini o'rganish;

➤ G'aznachilik hududiy bo'limlarida Davlat byudjeti daromadlarini hisobga olish bo'yicha muomalalarni o'rganish;

➤ G'aznachilik hududiy bo'limlarida Davlat byudjeti xarajatlarini hisobga olish bo'yicha muomalalarni o'rganish;

➤ moliyaviy natijalarni aniqlashning maqsadi va mohiyatini, Davlat byudjet yakuniy moliyaviy natijalarni aniqlashning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib berish;

➤ G'aznachilik hududiy bo'limlarida Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tuzish tartiblarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy va uslubiy asoslari. Prezident farmonlari, byudjet tizimiga oid asarlar, Qonunlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlari, yo'riqnomalar, nizomlar, ko'rsatmalar, shuningdek vazirliklarning me'yoriy-huquqiy xujjatlari va sohaga oid darsliklar va qo'llanmalar ishning nazariy va uslubiy asoslaridir.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, ishning nazariy va uslubiy asosi, ishning tarkibi va tuzilishi yoritilgan.

Birinchi bobda, Respublikamizda byudjet tizimining asosiy tamoyillari, g'aznachilik hududiy bo'limlarida buxgalteriya hisobining vazifalari va ularga qo'yiladigan talablari atroflicha yoritilib, davlat byudjeti g'azna ijrosi hisobiga doir buxgalteriya xujjatlari, hisob registrlari va ularni yuritish tartibi ko'rsatib berilgan.

Ikkinchi bobda, g'aznachilik bo'limlarida Dalat byudjet g'azna ijrosi daromadlarini hisobi, Dalat byudjet xarajatlari kassa ijrosi hisobi, Dalat byudjet ijrosi natijalari hisobi va hisotlari kabi mavzular yoritilgan.

Uchinchi bobda esa, G'aznachilik hududiy bo'limlarida Dalat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisoboni takomillashtirish kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishning yakunida mavzu bo'yicha xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan hamda uni amaliyotga tadbiq qilish yo'llari keltirilgan.

I-Bob. G'aznachilik hududiy bo'limlarida Dalat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisoboni tashkil etishning nazariy va huquqiy asoslari.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ijrosini amalga oshirishda g'aznachilik organlarining o'rni va roli

Xozirgi vaqtda Davlat byudjet ijrosini samarali tashkil etishni g'aznachilik tizimi nazoratisiz amalga oshirish qiyin ekanligini olimlarimiz va iqtisodchilarimiz, qolaversa, moliya soha mutaxassislari asosli ravishda e'tirof etmoqdalar. Chunki bugungi kunda g'aznachilik davlat byudjet daromadlarini va xarajatlarini yagona g'aznahisobraqamiga jamlaydi, pul mablag'larini rejalashtiradi, pul mablag'larining dastlabki va joriy nazoratlarini amalga oshirish hamda davlat byudjetini yuqori tezkorlikda ijro qilishda nazoratni amalga oshiradi.

2014 yil 1 yanvardan O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi amalga kiritilgan va unda "byudjet jarayoni"ga quyidagicha ta'rif berilgan: "*byudjet jarayoni* – byudjet tizimi byudjetlarini shakllantirish, tuzish, ko'rib chiqish, qabul qilish, tasdiqlash va ijro etish, ularning ijrosi ustidan nazorat qilish, byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlash, shuningdek ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni"¹. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, byudjet jarayoni byudjet faoliyatining quyidagi to'rt bosqichini o'z ichiga oladi (1.1.1-rasm):

1.1.1.-rasm. Byudjet jarayoni bosqichlari²



Byudjet jarayoni byudjet loyihasini tuzishdan boshlanadi. Byudjet

¹ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi, 3-modda (O'RQ-360-son. 26.12.2013).

² O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 3-moddasi asosida (O'RQ-360-son. 26.12.2013).


loyihasini tuzish davlatning moliyaviy siyosati me'yorlariga asoslangan moliyaviy rejalashtirishning asosiy tarkibiy bo'linasini tashkil qiladi. Byudjet loyihasini rejalashtirishning iqtisodiy vazifasi respublika va mahalliy byudjetlar va byudjetdan tashqari maqsadli fondlarni tuzish va ularni ijrosini amalga oshirish jarayonida davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari asosida milliy daromadni respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida markazlashtirilgan holda qayta taqsimlash nisbatlarini to'g'ri belgilashdan iboratdir.

Davlat byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar ijrosi moliya yilida va qo'shimcha davrida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Davlat byudjet va byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar ijrosi bo'yicha qo'shimcha davridagi operatsiyalarni o'tkazish tartibini va eng kech muddatlarini belgilaydi.

Byudjet Kodeksining 117-moddasida Davlat byudjet daromadlari ijrosi nimalarni o'z ichiga olishi quyidagilar (1.1.2-rasm):


1.1.2-rasm.

Byudjet tizimi byudjetlari daromadlari ijrosini tashkil etish.³



Byudjet Kodeksining 120-moddasiga ko'ra, byudjet tizimi xarajatlar qismining ijrosi qo'yidagilarni nazarda tutadi (1.1.3-rasm):

³ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining VII bo'lim, 19-bob, 109-moddasi asosida keltirildi.

Byudjet tizimi byudjetlari xarajatlari ijrosini tashkil etish⁴

Respublikamizda davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimiga o'tgunga qadar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va uning topshirig'iga muvofiq tijorat banklari *davlat byudjetining kassaviy ijrosini* amalga oshirib keldilar. 2000 yil 14 dekabrda qabul qilinib, 2014 yil 1 yanvarda Byudjet Kodeksi kuchga kirgunga qadar byudjet amaliyotining huquqiy asosini tashkil qilib kelgan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 37-moddasida "Davlat byudjetining kassa ijrosini tashkil etish, shuningdek uning davlat daromadlari va xarajatlarini hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan birgalikda amalga oshiriladi. Davlat byudjetining kassa ijrosi operatsiyalarini banklar Markaziy bankning topshirig'iga binoan bajaradi"⁵, - deb belgilab qo'yilgan edi.

Keyingi yillarda davlat byudjetining kassaviy ijrosi davlat mablag'larini boshqarish, byudjet ijrosini tashkil qilish va nazoratini olib borish, mablag'larning samarali ishlatilishini ta'minlash masalalarida bir qator *muammolarni* keltirib chiqardi (1.1.4-rasm):

⁴ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining VII bo'lim, 19-bob, 120-moddasi asosida keltirildi.

⁵ O'zbekiston Respublikasi "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonunining 37-moddasi

1.1.4-rasm. Davlat byudjeti g'azna ijrosi joriy qilingunga qadar yuzaga kelgan muammolar⁶



⁶ Қосимова Г. Давлат бюджети ижросининг ғазнашилиқ тизими. Ўқув қўлланма. Т.: Иқтисод-молиуа, 2008. Ўқув қўлланмада келтирилган материаллар асосида.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri – mamlakatda davlat byudjeti g'azna ijrosi mexanizmini joriy qilishdan iborat. G'aznachilikni joriy etish byudjetning daromadlar qismida tushumlarning to'liq va o'z vaqtida tushishini va xarajatlar qismida byudjet mablag'larining maqsadli sarflanishining nazoratini kuchaytirish va pul oqimlarini samarali boshqarish imkonini berdi.

Davlat byudjeti ijrosini g'aznachilik mexanizmlariga o'tkazishning quyidagi **afzalliklari** mavjud:

- qisqa fursatlarda davlat moliyaviy resurslarining real hajmini va uning istiqbol ko'rsatkichlarini aniqlash;
- davlat moliyasining holati to'g'risidagi tezkor axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish;
- davlat byudjetining ham daromadlari, ham xarajatlari qismi kassali ijrosining har kungi detallashtirilgan monitoringini o'tkazish;
- tasdiqlangan byudjet mablag'lari doirasida byudjet tashkilotlarining tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar oldida majburiyatlar qabul qilish bosqichida (shartnomalar, kontraktlar tuzish) dastlabki nazorat qilish;
- moliya organlari tomonidan byudjet xarajatlarini o'z vaqtida va manzilli moliyalashtirish bilan byudjet mablag'larini bosh taqsimlovchilar tomonidan suiste'mol qilish va noto'g'ri ishlatishning oldini olish maqsadida joriy nazorat qilish;
- byudjet tashkilotlari majburiyatlarini olgandan keyin pul mablag'larini g'aznachilik hisobraqamidan to'g'ridan-to'g'ri ta'minotchilarning hisobraqamiga o'tkazish natijasida pul oqimlari harakati bo'yicha jarayonlarni qisqartirish;
- g'aznachilikning bir pog'onasidan ikkinchi pog'onasiga pul mablag'larini o'tkazishni soddalashtirish natijasida byudjet mablag'larini tezkor ishlatish.⁷

⁷ Qosimova G. Davlat byudjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2008.

Moliya vazirligi G'aznachiligi davlat moliyasini samarali boshqarish uchun ham, undan oqilona foydalanilishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlash uchun ham mustahkam zamin yaratdi. Buni esa quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchidan, g'aznachilik davlat byudjetining ijrosi jarayonida yuzaga keladigan daromad va barcha xarajatlarni yagona g'azna hisobraqamidan amalga oshiradi. Mablag'larning Yagona g'aznahisobraqamiga soliq va soliq bo'lmagan daromadlar ko'rinishida kelib tushishi moliyaviy resurslarni operativ boshqarish va davlat byudjeti xarajatlarini o'z vaqtida to'lash uchun barqaror asos yaratadi.

Ikkinchidan, dastlabki nazoratni amalga oshirish uchun sharoit yuzaga keladi, ya'ni majburiyatlarni qabul qilish jarayoni boshlanadi, bunda byudjet tashkiloti tomonidan smetada ko'zda tutilgan mablag'lar doirasida kelajakda moliyaviy xarajatlarni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlar g'aznachilik organlarida ro'yxatdan o'tkaziladi va shu asosda mablag'larning maqsadli harakatini ta'minlash uchun zamin yaratiladi.

1.2. G'aznachilik hududiy bo'limlarida Dalat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisoboni tashkil etish va uning ahamiyati.

Davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi" va "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunlariga, "Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri byudjeti ijrosining moliya organlarida buxgalteriya hisobi bo'yicha yo'riqnoma", g'aznachilik hududiy bo'limlarida davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2011 yil 14 yanvardagi 2-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Davlat byudjeti, Davlat maqsadli va byudjetdan tashqari boshqa jamg'armalari byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobi to'g'risida yo'riqnoma" ga asosan g'aznachilik hududiy bo'limlarida buxgalteriya hisobi yuritilmoqda va boshqa O'zbekiston Respublikasi qonuniy hujjatlarga asosan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi hududiy bo'linmalarida buxgalteriya hisobini yuritadi. Xozirgi vaqtda Davlat byudjet ijrosini hisobga olish kassa usuliga asoslangani sababli, G'aznachilik hududiy bo'linmalarda buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yagona "G'azna dasturiy tizimi"da olib borilmoqda. G'aznachilik hududiy bo'linmalarining bosh hisobchilari o'z faoliyatlarida Davlat byudjetining g'azna ijrosining qoidalari va boshqa tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslanadi.

G'aznachilik hududiy bo'linmalarida davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobini yuritishdan maqsad byudjet jarayonlari bo'yicha buxgalteriya hisobi axborotlarini shakllantirish va umumlashtirishdan iboratdir.

G'aznachilik hududiy bo'linmalarida davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobining oldiga qo'yilgan vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha muomalalarini buxgalteriya hisobi hujjatlarida aks ettirish;
2. Buxgalteriya hisobi hisobraqamlarda byudjet mablag'larining holati va ularning harakatini aks ettirish;
3. Davlat byudjeti g'azna ijrosi natijalarini aniqlash;

4. Davlat byudjeti g'azna ijrosining oylik, choraklik va yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzish, taqdim etish va boshqalar.⁸

Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalarni buxgalteriya hisobini yuritish uchun ushbu operatsiyalarning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar va ularni amalga oshirishga doir farmoyishlar kabi birlamchi buxgalteriya hisobi hujjatlari asos bo'ladi.

Birlamchi buxgalteriya hisobi hujjatlar Davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilgan vaqtda yoki ular amalga oshirilgandan so'ng tuziladi.

Davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha hisobot davrida amalga oshirilgan operatsiyalarni tasdiqlovchi hujjatlar gaznachilik bo'limlari tomonidan olinmagan bo'lsa, ular buxgalteriya hisobida tegishli birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish orqali aks ettiriladi. O'tgan yilgi byudjet ijrosini amalga oshiriladigan moliya yiliga qo'shimcha davrda byudjetlarning g'azna ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarning hisobi, qo'shimcha davr mobaynida tuzilgan birlamchi hisob hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti ijrosi buxgalteriya hisobini amalga oshirish uchun g'aznachilik hududiy bo'linmalarining birlamchi hisob hujjatlarga va hisob registrlariga imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan mas'ul shaxslari tomonidan imzolangan hisob birlamchi hujjatlar rasmiylashtiriladi.

Birlamchi buxgalteriya hisobi hujjatlarida ma'sul bo'lgan hodimning imzolari bo'lmasa, ular haqiqiy hujjat hisoblanmaydi. Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni buxgalteriya yozuvilari quyidagi tartibda rasmiylashtirilganlar asos bo'lib xizmat qiladi:

G'aznachilik hududiy bo'linmalarining g'azna hisobraqamlaridan pul mablag'larining harakatini tasdiqlovchi gaznachilik bo'limlari tomonidan tegishli belgilari qo'yilgan to'lov topshiriqnomalari va boshqa to'lov hujjatlari (elektron) ilova qilingan bank ko'chirmalari;

⁸ Sh.N.Fayziev Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi.O'quv qullanma. - B.m.: T.:TMI, 2014.

G'aznachilik hududiy bo'linmalari maxsus hisobraqamlaridan ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan naqd pul mablag'larining harakati bo'yicha shu hisobraqamlardan pul mablag'larining harakatini tasdiqlovchi g'aznachilik hududiy bo'limlarining tegishli belgilari qo'yilgan to'lov topshiriqnomalari va boshqa to'lov hujjatlari ilova qilingan bank ko'chirmalari;

11-sonli shakldagi o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha bildirishnoma;

3-sonli shakldagi byudjetlarni g'azna hisobraqamlariga Davlat byudjeti, Davlat maqsadli jamg'armalar, shuningdek bojxona organlari g'azna depozit hisobraqamiga kelib tushgan byudjet daromadlar to'g'risidagi ma'lumotnoma;

274-sonli shakldagi memorial order;

Davlat byudjeti, Davlat maqsadli jamg'armalar, Davlat bojxona qumitasi g'azna depozit hisobraqamlari, shuningdek byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari maxsus hisobraqamlardagi mablag'lari hisobini yuritishda ishlatiladigan boshqa dastlabki hujjatlar.

G'aznachilik hududiy bo'limida hisobning birlamchi hujjatlarini tuzgan va imzolagan mas'ul shaxslar, ushbu hujjatlarga talluqli ma'lumotlarning o'z vaqtida to'g'ri va haqqoniy tuzilishi, shuningdek ularni belgilangan muddatlarda buxgalteriya hisobotida aks ettirilishi uchun etkazilishiga javobgardirlar.

G'aznachilik sharoitida buxgalteriya hisobini yuritishda birlamchi va boshqa hisob hujjatlariga, bank va kassa hujjatlarini o'zgartirish va bo'yashga, operatsiyalar qatnashchilari tomonidan tasdiqlanmagan o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Har ish kuni tugashi bilan byudjet g'azna ijrosi bo'yicha, Davlat maqsadli jamg'armalar byudjeti, byudjet tashkilotlari byudjetdan tashqari mablag'lari, shuningdek Davlat bojxona qumitasi g'azna depozit hisobraqami mablag'lari bo'yicha muomalalari barcha birlamchi buxgalteriya hisob hujjatlari g'aznachilik hududiy bo'linmalari buxgalteriya hisobi mas'ul shaxslari tomonidan ularning kelib tushishi bo'yicha tikiladi va broshyuralanadi.

Dalat byudjeti ijrosi bo'yicha muomalalarning hisobi registrarlari buxgalteriya pravodkalari qoidalariga asosan tasdiqlangan ish blankalar, jurnallar, kitoblarni o'zida ifodalaydi

Davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha muomalalarning buxgalteriya hisobi quyidagi hisob registrlarida yuritiladi:

a) "Bosh jurnal" daftari;

b) byudjetlar mablag'lari kassa xarajatlari kitobi, maqsadli jamg'armalar mablag'lari taqsimlovchilari kassa xarajatlari kitobi, byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari tushumi va sarflanishi hisobi kitobi, bojxona organlari g'azna depozit schyotiga mablag'lar tushumi va sarflanishi hisobi kitobi, byudjetdan mablag' oluvchilarning boshqa byudjetdan tashqari mablag'lari tushumi va sarflanishi hisobi kitobi;

v) byudjetlar bilan hisoblashuvlar kitobi, byudjetlar va jamg'armalar bilan hisoblashuvlar, shuningdek jamg'armalar bilan ssudalar bo'yicha hisoblashuvlar kitobi;


g) boshqa byudjetlar bilan hisob-kitoblar kitobi;

d) byudjet mablag'lari daromadlari va tushumlari hisobi kitobi, jamg'armalar mablag'lari daromadlari va tushumlari hisobi kitobi.⁹

Davlat byudjeti ijrosining hisob registrarlari bo'yicha muomalalar elektron shaklda yuritiladi. Davlat byudjeti, Davlat maqsadli jamg'armalar byudjeti, bojxona qumitasining g'azna depozit hisobraqami, shuningdek byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari boshqa mablag'lari bo'yicha amalga oshirilgan byudjet kassa xarajatlari to'g'risidagi ma'lumot Davlat byudjetining g'azna ijrosi dasturiy majmuida kunlik asosida va hisobot oyi, choragi va yilining o'sib boruvchi yakuni bilan bank ko'chirmalaridan olingan va tegishli g'azna hisobraqamlariga (operatsiya amalga oshirilgan kunning ertangi bank kunidan kechiktirmasdan) kelib tushgan va ko'chirilgan mablag'lar to'lov hujjatlari ma'lumotlari asosida aks ettiriladi. (1.2.1-chizma)

⁹ M.Ostonoqulov "Byudjet hisobi va hisoboti" Toshkent, "Moliya", 2013.

**G'aznachilik hududiy bo'linmalarida qo'llaniladigan buxgalteriya
schyotlari tasnifi.**



G'aznachilik hududiy bo'linmalarida Davlat byudjeti, Davlat maqsadli jamg'armalar byudjeti, shuningdek byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha amalga oshirilgan kassa xarajatlari operatsiyalari buxgalteriya hisobi schyotlar rejasida kassa metodi asosida yuritiladi.

Joriy yil bo'yicha byudjet ijrosining buxgalteriya hisobi yozuvlarida topilgan hatolar quyidagi tartibda to'g'rilanadi:

a) mazkur hisobot davrida buxgalteriya balansi taqdim qilingunga qadar aniqlangan, memorial order ma'lumotlarini o'zgartirishni talab qilinmaydigan hato noto'g'ri summalar va matnni ustidan, o'qib bo'ladigan darajada ingichka chiziq tortish, kerak bo'lgan paytda chizilganlar ustiga to'g'ri summalarni va yangi matnni

yozish orqali to'g'rilanadi. Har bir tuzatish bosh buxgalterning imzosi bilan tasdiqlanadi;

b) buxgalteriya balansini taqdim qilingunga qadar, memorial orderdagi hato natijasida topilgan hato yozuv, uning xarakteriga muvofiq qo'shimcha memorial order tuzish orqali yoki "Qizil storno" usuli bilan tuzatiladi. Balans taqdim qilingandan so'ng hisobot davri buxgalteriya hisobi yozuvlaridagi topilgan hatolar ham huddi shu tarzda tuzatiladi. Hatolar "Qizil storno" usuli bilan tuzatilganda quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi: hato yozuv qilib qizil siyohda qaytadan yozilib, to'g'risi esa - qora (ko'k, siyoh rang) siyohda yoziladi. Jami summalarni hisoblashda qizil siyohda yozilgan summalar qora (ko'k, siyoh rang) siyohda yozilgan summalar yig'indisidan ayiriladi. Hatolarni tuzatish bo'yicha qo'shimcha buxgalteriya yozuvlari, shuningdek "Qizil storno" usuli bilan xato tuzatishlar, odatdagi rekvizitlar bilan bir qatorda memorial orderlar bilan rasmiylashtirilib, tuzatish kiritilgan memorial orderning tuzilgan sanasi va raqamiga asosan tuzilganligi ta'kidlab o'tiladi.¹⁰

Joriy moliya yili tugaganda yil yakuni bo'yicha balans tuzilishidan oldin buxgalteriya hisobi registrlarida har bir sintetik va analitik hisobraqamlar bo'yicha aylanmalar yig'indisi hisoblanib, ushbu hisobraqamlar bo'yicha qoldiqlar chiqariladi.

Yangi hisobot yilida sintetik va analitik hisobraqamlar bo'yicha buxgalteriya registrlarida yilning boshiga mavjud bo'lgan qoldiqlar yakuniy balans va o'tgan yilning hisob registrlaridagi yozuvlarga to'liq mos kelgan holda yoziladi.

Bosh hisobchi rahbarlik qiladigan g'aznachilik hududiy bo'linmalari buxgalteriya hisobi bo'limi mustaqil tarkibiy bo'linma hisoblanadi.

G'aznachilik hududiy bo'linmalarining bosh buxgalterlari o'z ish faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti g'azna ijrosi qoidalarini tartibga soluvchi amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga tayanadilar.

¹⁰M.Ostanaqulov Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009.

Bosh hisobchi xizmat vazifalarini buxgalteriyaning har bir hodimi uchun alohida belgilaydi. G'aznachilik hududiy bo'linmalari bosh hisobchisi lavozimga tayinlanishida va undan ozod etilishida moliya organi rahbarining buyrug'iga muvofiq tuzilgan komissiya tomonidan qabul qilish – topshirish kunida hisob, hisobot va arxiv hujjatlarining holatini ko'rsatgan holda buxgalteriya ishlarini qabul qilish–topshirish to'g'risidagi dalolatnoma tuziladi.

G'aznachilik hududiy bo'linmalari bosh buxgalterining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- buxgalteriya hisobini byudjet hisobiga oid normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilgan holda yuritish, shuningdek, hisob ishlarini zamonaviy texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil etish;

- buxgalteriya hujjatlarini o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirilishini hamda amalga oshirilayotgan operatsiyalarning qonuniyligini oldindan nazorat qilish;

Buxgalteriya hisobi va hisobotlarni tuzish masalalari yuzasidan ko'rsatmalar berish hamda ular ustidan nazoratni amalga oshirish;

- byudjet mablag'larini, shuningdek, jamg'armalar mablag'lari, byudjetdan tashqari mablag'larni xarajatlar smetasida ko'zda tutilgan muayyan maqsadlarga to'g'ri sarflanishi, shuningdek, pul mablag'lari va moddiy qimmatliklarning butligi ustidan muntazam nazorat qilish;

- byudjet ijrosi jarayonida vujudga keladigan byudjetlar o'rtasida o'zaro hisoblashuvlar, byudjet ssudalari bo'yicha hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirish;

- byudjet ijrosi jarayoniga oid moliyaviy hisobotlarni belgilangan muddatlarda tuzish va topshirish;

- buxgalteriya hujjatlarini, hisob registrlarini, shuningdek, xarajatlar smetalarini (ilova hisob-kitoblari bilan birga) saqlanishini ta'minlash;

- qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa vazifalarni bajarilishini ta'minlash.¹¹

¹¹ S.U.Mehmonov Budjet hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012

Moliya organi bosh hisobchisi yuqoridagi vazifa va majburiyatlardan kelib chiqqan holda quyidagi huquqlarga ega:

- buxgalteriya hisobi va nazorat ishlari to'g'ri tashkil etilishini ta'minlash yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko'rishni rahbardan talab qilish;
- barcha bo'linmalaridan buxgalteriya hisobini yuritish uchun talab qilinadigan hujjatlar va ma'lumotlarni rasmiylashtirishni hamda buxgalteriyaga taqdim qilishni talab qilish;
- qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarni amalga oshirish.¹²

Bosh hisobchi quyidagilar uchun javobgar hisoblanadi:

- buxgalteriya hisobi noto'g'ri yuritilib, natijada tartibsiz holatga kelgani va byudjet ijrosiga oid moliyaviy hisobotlar buzilganda (noto'g'ri tuzilganda);
- byudjet ijrosi jarayoni yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibga zid operatsiyalar bo'yicha hujjatlar rasmiylashtirilgan va ijroga qabul qilingan hollarda;
- buxgalteriya hisobini tashkil etishga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablari buzilganda.¹³

Bosh buxgalterga uning hisob va hisobot bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri vazifalarini bajarish bilan bog'liq bo'lmagan topshiriqlarni berish mumkin emas. Bosh buxgalterga pul mablag'lari va moddiy qiymatliklar uchun bevosita moddiy javobgarlik bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni yuklash mumkin emas. Bosh buxgalterga o'ziga yuklatilgan barcha vazifalarni amalga oshirish uchun unga buxgalteriya hisobi va ichki nazoratini amalga oshirishga zarur bo'lgan barcha birlamchi hujjatlar: choraklar bo'yicha taqsimlangan byudjetning daromadlari va xarajatlarining yillik yoyilmasi, moliyalash rejalari, buyruqlar, farmoyishlar, moliyalashtirish hajmlarining o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotnoma-bildirishnomalar va ma'lumotnoma-xabarnomalar, mahalliy byudjet va Jamg'arma byudjetining ijro etilishi bilan bog'liq bo'lgan boshqa materiallar va hujjatlar o'z vaqtida berib turilishi kerak.

¹² S.U.Mehmonov Budjet hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012

¹³ S.U.Mehmonov Budjet hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012

II-Bob. G'aznachilik hududiy bo'limlarida Dalat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisoboni tashkil etishning amaliy jihatlari.

2.1. Gaznachilik hududiy bo'limlarida Dalat byudjet g'azna ijrosi daromadlarini hisobga olish.

Byudjet daromadlari "Byudjet kodeksi"ga asosan quyidagi manbaalar hisobiga shakllantiriladi:

A) Respublika byudjeti daromadlari:

- 1) qonun hujjatlarida belgilangan tartibdagi va normativlar asosidagi umumdavlat soliqlari, yig'implari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;
- 2) qonun hujjatlarida belgilangan normativlar bo'yicha davlat moliyaviy va boshqa aktivlarining joylashtirilishi, foydalanishga berilishi va sotilishidan olingan daromadlar;
- 3) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;
- 4) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;
- 5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar;
- 6) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

B) Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar daromadlari:

- 1) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladigan mahalliy soliqlar, yig'implar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar;
- 2) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari, yig'implari, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar;
- 3) qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki ob'ektlarini joylashtirish, foydalanishga berishdan olingan daromadlar;

4) qonun hujjatlariga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari;

5) yuqori byudjetlardan beriladigan byudjet dotatsiyalari, byudjet subventsiyalari va byudjet ssudalari;

6) yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari;

7) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.¹⁴

Respublika byudjeti, Davlat maqsadli fondlari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, bojxona qumitasining g'azna depozit hisobraqami daromdlari kassa ijrosi G'aznachiligi hududiy bo'limlari tomonidan yuritiladi.

Buxgalteriya xodimlar hisobraqadan ko'chirmalar va ularga ilova qilingan hisob hujjatlarni olgandan so'ng ularni sinchiklab tekshirib, tegishli byudjetlar, maqsadli jamg'armalar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari bo'yicha kelib tushgan summalarni to'g'ri daromadlar tasnifi bo'yicha qabul qilinganligini aniqlashi kerak.

Byudjet tasnifi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti tizimiga kiruvchi byudjetlar daromdlari, xarajatlarini va ularning taqchilligini moliyalashtirish manbaalarini guruhlashtirishdan iboratdir.

Daromadlar tasnifi Respublika va mahalliy byudjetlarga kelib tushayotgan barcha turdagi daromadlar va tushumlarni turlari, kimlardan kelib tushayotganligi va respublikamizning qaysi hududlaridan kelib tushayotganligi to'g'risida yetarlicha aniq ma'lumotlarni olish mumkin. Yigirma bir koddan iborat bo'lgan daromadlar tasnifi tuzilmasi to'rt qismli ko'rinishga ega: (2.1.1-jadval)

- mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi;
- daromadlar turi;
- tashkiliy tasnif

¹⁴ "Byudjet kodeksi" O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami 3167-son 23.05.2013

- hududiy tasnif.¹⁵

2.1.1-jadval

Daromadlar tasnifi tuzilmasi quyidagi ko'rinishga ega:

Mablag'lar manbasi va byudjetlar darajasi tasnifi	Daromadlar turi	Tashkiliy tasnif	Hududiy tasnif
X XXX X X	X XXX XXX	XXX	XX XXX

Tekshirilgan hujjatlar kunlik ravishda daromadlar turi bo'yicha dasturiy majmuaga byudjet tasnifining har bir kodi bo'yicha kiritiladi.

Har kuni buxgalteriya hodimlari tomonidan g'aznachilikka hizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan taqdim etilgan ko'chirmalarga asosan tegishli byudjet, jamg'arma byudjeti, byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari mablag'lari, bojxona organlari g'azna depozit schyoti mablag'lari bo'yicha alohida-alohida Daromadlar haqida ma'lumotnoma(2.1.2-jadval) rasmiylashtirilib tegishli 274 - son shakldagi Memorial orderga (2.1.3-jadval) muomala sodir bo'lgan vaqtdan so'ng keyingi kundan kechiktirmay o'tkaziladi va hujjatlar ilova qilinib tikiladi va shu kundan kechiktirilmay G'aznachilik organi bosh buxgalteri tomonidan tasdiqlanadi.

2.1.2-jadval

Qarshi shahar mahalliy byudjetining g'azna hisobvarag'iga kelib tushgan daromadlar to'g'risida MA'LUMOTNOMA

(so'mda)

№ t/r	Hujjat tartib raqami	bo'lim/ paragraf	040-subschyot bo'yicha jami	041- subschyotbo'yicha jami	043-subschyot bo'yicha jami
		UNS			
1	1	253	53671818932		
2	2	462	255267820.80		

¹⁵ "Byudjet tasnifi" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 11 oktyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, № 2146

3	3	302	23480780.55		
4	4	189	1312658742.79		
5	5	0			350000000
6	6	0		1729864164.77	
7	7	190	5155877228.86		
	Jami		60419103504.8	1729864164.77	350000000

2.1.3-jadval

Memorial order


(so'mda)

Asos (hujjatlar bog'lanish yoki yozuv mazmuni)	Subschiyot debeti bo'yicha	Subschiyot krediti bo'yicha	Summa
ikkiyoqlama yozuv qoidalariga muvofiq (Daromad kabul kilinishi)	010	040	350000
ikkiyoqlama yozuv qoidalariga muvofiq (notugri tushgan daromad kaytarilishi)	040	010	300000
ikkiyoqlama yozuv qoidalariga muvofiq (Kassa xarajatining kaytarilishi)	010	020	200000
ikkiyoqlama yozuv qoidalariga muvofiq (Kassa xarajati amalga oshirilishi)	020	010	2500000
ikkiyoqlama yozuv qoidalariga muvofiq (Byudjet ssudasi kabuli kilinishi)	010	053	500000000
ikkiyoqlama yozuv qoidalariga muvofiq (O'zaro hisob-kitob qabul qilinishi)	010	064	400000000
ikkiyoqlama yozuv qoidalariga muvofiq (daromadlarning byudjet natijalariga o'tkazilishi)	040	090	4950870253

Daromadlar kitobiga ma'lumotlar avtomatik o'tkaziladi. Moliya boshqarmasi bosh buxgalteri G'aznachilik buxgalteriyasi tomonidan tasdiqlangan yuqorida keltirilgan xujjatlarni tekshirib chiqadi. Unda sintetik va analitik hisob ma'lumotlarini muvofiqligi tekshiriladi va G'azna dasturiy majmuada "Ijroga" belgisini qo'yadi va ma'lumotlar bosh daftarga va hisobot shakllariga avtomatik o'tadi. (2.1.2 – chizma).

G'aznachilik organlarida daromadlar hisobini xujjatlashtirishni sxematik ko'rinishini quyidagicha aks ettirish mumkin.

**G'aznachilik organlarida daromadlar hisobini ujjatlashtirishni
sxematik ko'rinishi¹⁶**



G'aznachilik va uning hududiy bo'linmalarida byudjetiga kelib tushuvchi daromadlar, 04 passiv schyotda hisobga olinadi:

040 - «Byudjet daromadlari» schyoti;

041 - «Aniqlanmagan tushumlar» schyoti;

042 - «Vaqtincha mahalliy byudjet daromadlariga o'tkazilgan summalar».

¹⁶ M.Ostonoqulov "Byudjet hisobi va hisoboti" Toshkent, "Moliya", 2013.

040 - «Byudjet daromadlari» schyotida Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlarning bank hisobvarag'lariga kelib tushgan daromadlari va vaqtincha mahalliy byudjet daromadlariga o'tkazilgan summalar hamda byudjet daromadlariga ortiqcha kelib tushgan summalarni qaytarishga doir operatsiyalar hisobga olinadi. Bundan tashqari, maqsadli moliyalashtirish uchun kelib tushgan daromadlar, hamda qonunchilikda belgilangan boshqa tushumlar hisobga olinadi.

Davlat byudjetiga kelib tushgan daromadlar summasiga g'aznachilik hududiy bo'limlarida to'lov xujjatlari ilova qilingan hisobvaraقدan ko'chirma ilova qilinib quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 010 - «Bank muassasalaridagi byudjet mablag'lari»

Kredit 040 - «Byudjet daromadlari»

Summa 74512000000

G'aznachilik hududiy bo'limlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi va mahalliy byudjetlarga kelib tushadigan daromadlar to'lov xujjatlari ilova qilingan hisobvaraقدan ko'chirma ilova qilinib quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 011 - «Mahalliy byudjet mablag'lari hisobvarag'i»

Kredit 040 - «Byudjet daromadlari»

Summa 2543450000

Respublika va mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa to'lovlarni hisobga olish va ortiqcha tushgan mablag'larni qaytarish tartibi O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 129-moddasiga muvofiq belgilanadi. Soliq to'lovchilarning ortiqcha byudjetga to'langan summalarni qaytarib olish bo'yicha yozgan arizalari soliq idoralariga kelib tushadi. Soliq idoralari to'lovchilarning shaxsiy hisobraqamlaridagi ma'lumotlar asosida soliq to'lovchining ortiqcha summasi haqiqatdan ham mavjud ekanligi to'g'risida xulosa beradi va ortiqcha summa mavjud bo'lsa qaytarish yoki uni kelgusi davrlar uchun soliq to'lovlari hisobiga o'tkazib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilib, to'lovchining arizasi bilan birga G'aznachilik hududiy bo'limlariga yuboriladi. Soliq idoralarida shaxsiy hisobraqami mavjud bo'lmagan soliq to'lovlar va soliqlar bo'yicha xulosa

G'aznachilik hududiy bo'limlariga soliqlarni to'lovchi tomonidan to'langanligini tasdiqlovchi to'lovga asos bo'luvchi hujjatlar ilova qilinib beriladi. Byudjetga ortiqcha tushgan soliqlar va boshqa to'lovlarni qaytarib berish G'aznachilik hududiy bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

G'aznachilik hududiy bo'limlari rahbari tasdiqlangan amaldagi tartibga muvofiq qaytarish bo'yicha xulosalarni ijrosini amalga oshirish uchun G'aznachilik hududiy bo'limlari bosh buxgalteriga beriladi. Byudjet daromadlariga ortiqcha kelib tushgan summalarni qaytarish uchun to'lov topshiriqnomasini, G'aznachilik hududiy bo'limlarining buxgalteriya bo'limi qaytarish bo'yicha hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirganidan so'ng tayyorlanadi. Jismoni shaxslarning soliqlar va yig'implarga ortiqcha o'tkazgan summalarini qaytarish bank muassasalarida ushbu shaxslarga maxsus shaxsiy hisobraqam ochilgandan keyin amalga oshiriladi. G'aznachilik hududiy bo'limlarining buxgalteriyasi ortiqcha o'tkazilgan summalarni qaytarilishi to'g'risidagi xulosani uch nusxada oladi. Xulosalar G'aznachilik hududiy bo'limlariga kelib tushish tartibiga qarab ro'yhatga olinadi. Mahalliy byudjetga ortiqcha kelib tushgan mablag'larning qaytarilishi to'g'risidagi xulosaning birinchi nusxasi G'aznachilik hududiy bo'limining buxgalteriyasida qoladi hamda memorial orderga ilova qilinadi. Ushbu xulosaning ikkinchi nusxasi, to'lov topshiriqnomasi bilan bank muassasalariga beriladi. Xulosaning uchinchi nusxasi to'lov topshiriqnomasining raqami, sanasi va summasini ko'rsatilgan holda, to'lovchilarni shaxsiy hisobvaraqlariga yozish va saqlash uchun soliq idoralariga qaytariladi. Mahalliy byudjetga ortiqcha kelib tushgan summalar G'aznachilik hududiy bo'limlari tomonidan to'lovchilarga qaytarilganda quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 040 - «Byudjet daromadlari»

Kredit 011 - «Mahalliy byudjet mablag'lari hisobvarag'i»

Summa 432500

G'aznachilik hududiy bo'limlari buxgalteriyasi Davlat byudjetiga kelib tushgan soliqlar va boshqa yig'implarning har bir turilari bo'yicha utgan oyda tushgan

va qaytarilgan summalar haqidagi ma'lumotlarni oy tugagandan keyig soliq idoralari bilan solishtirib tekshirib boradi va aniqlangan farqlar bartaraf etiladi. G'aznachilik hududiy bo'limlari tomonidan hisobga olinadigan Respublika byudjeti daromadlari hisobidan mahalliy byudjetlarga qoldiriladigan summolari bank muassasalarining ushbu mablag'lar bo'yicha mavjud ma'lumotlari bilan bir xil bo'lishi kerak va bu jarayonda xatolari aniqlansa, G'aznachilik hududiy bo'limlari uni to'g'rilash choralar ko'rishi kerak.

Davlat byudjetiga kelib tushgan mablag'larni byudjet daromadlariga o'tkazishga yetarli asos bo'lmasa yoki mablag'ni qaysi byudjet tasnifiga olishning imkoni bo'lmasa, bunday mablag'larga aniqlanmagan tushum deb ataladi.

Mahalliy byudjetlarga yuridik yoki jismoniy shaxslardan kelib tushgan aniqlanmagan tushumlar, shuningdek byudjetdan mablag' oluvchilardan ortiqcha yoki noto'g'ri o'tkazilgan mablag'lar hisobini va ularni aniqlashni G'aznachilik hududiy bo'limlari olib boradi va quyidagicha buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 011 - «Mahalliy byudjet mablag'lari hisobvarag'i»

Kredit 041 - «Aniqlanmagan tushumlar»

Summa 2654700

Agar mazkur summalar mahalliy byudjet daromadlari emasligi aniqlansa bu summalar qaytariladi. Ortiqcha yoki noto'g'ri o'tkazilgan mablag'lar qaytarilganda tegishli mahalliy G'aznachilik hududiy bo'limlari quyidagi buxgalteriya provodkasi tuzadi:

Debet 041 - «Aniqlanmagan tushumlar»

Kredit 011 - «Mahalliy byudjet mablag'lari hisobvarag'i»

Summa 2654700

Agar ortiqcha yoki noto'g'ri o'tkazilgan deb hisoblanayotgan summa mazkur mahalliy byudjet daromadlariga tegishli bo'lib chiqsa, u holda tegishli G'aznachilik hududiy bo'limi buxgalteriyasida quyidagicha buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 041 - «Aniqlanmagan tushumlar»

Kredit 040 - «Byudjet daromadlari»

Summa 2654700

Ortiqcha yoki noto'g'ri o'tkazilgan tushumlar mahalliy byudjetga kelib tushgan kunidan bir oy mobaynida, dekabr oyida esa 31 dekabrgacha kimga tegishligi aniqlanilmasa, byudjeti tasnifining 12-«Yig'imlar va har xil nosoliq daromadlar» bo'limining 25-«Boshqa tushumlar» paragrafi bo'yicha mahalliy byudjet daromadlarga o'tkaziladi. G'aznachilik hududiy bo'limlari buxgalteriyasida bu muomalaga quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 041 - «Aniqlanmagan tushumlar»

Kredit 040 - «Byudjet daromadlari»

Summa 2654700

"Yuqori byudjet prognoz ko'rsatkichlarini oshirib bajarishdan mahalliy byudjetlarga kelib tushgan daromadlar" nomli 043-sonli hisobraqada yuqori byudjet prognoz ko'rsatkichlarini oshirib bajarishdan mahalliy byudjetlarga ajratiladigan mablag'lar hisobga olinadi.

Respublika byudjetining prognoz ko'rsatkichlarini oshirib bajarilishidan mahalliy byudjetlarga daromad sifatida o'tkazib beriladigan mablag'larga G'aznachilik hududiy bo'limlari buxgalteriyasida quyidagicha pravodka beriladi:

Debet 043 - «Yuqori byudjet prognoz ko'rsatkichlarini oshirib bajarishdan mahalliy byudjetlarga kelib tushgan daromadlar»

Kredit 010 - «Bank muassasalaridagi respublika byudjet mablag'lari»

Summa 2654700

Yuqori byudjetning prognoz ko'rsatkichlarini oshirib bajarilishidan tushgan daromadlar summalarini quyi mahalliy byudjetlarga o'tkazish

Debet 043 - «Yuqori byudjet prognoz ko'rsatkichlarini oshirib bajarishdan mahalliy byudjetlarga kelib tushgan daromadlar»

Kredit 011 - «Bank muassasalaridagi mahalliy byudjet mablag'lari»

Summa 2654700

Davlat byudjeti daromadlarining analitik hisobi asosida, bu hisob qaysi moliya organiga yuklatilganligidan qat'iy nazar, byudjet daromadlari tasnifi yotadi.

mahalliy byudjetlar daromadlarining analitik hisobini G'aznachilik hududiy bo'limlari amalga oshiradi.

Memorial order va daromadlar kelib tushishi haqidagi axborotlarga asosan «Byudjet daromadlari» kitobning «Kredit» ustuniga byudjet daromadning har bir turi uchun ajratilgan qatorlarda amalga oshirilgan muomalalar bo'yicha yozuvlar yoziladi. Davlat byudjeti daromadlariga ortiqcha kelib tushgan summalar bo'yicha ushbu kitobda alohida qator ajratiladi va «Debet» ustunida xronologik tartibda yoziladi. Bunda memorial orderning tartib raqami, daromadlarning byudjet tasnifi bo'yicha bo'limi, bobi, paragrafi hamda mablag' miqdori ko'rsatiladi. Oy yakunlangandan keyin ushbu muomalalar bir xil turdagi daromadlarning qaytarilgan summolari bo'yicha muomalalar debetidagi «Oy bo'yicha jami» ustuniga tegishli bo'lgan qatorlarida, har bir byudjet daromadlari turi bo'yicha qaytarilgan jai mablag'lar tartiblashtiriladi, keyin joriy oy bo'yicha, yil boshidan va 040 - «Byudjet daromadlari» hisobraqami bo'yicha jami mablag'lar miqdori hisoblab chiqiladi.

Mahalliy byudjetlar daromadlarining g'azna hisobraqamiga kelib tushadigan umumdavlat soliqlari va yig'imlaridan ajratmalar hisobi, mahalliy holatdan kelib chiqib o'rnatilgan shakllarda G'aznachilik hududiy bo'limlari tomonidan tizimsiz olib boriladi. Umumdavlat soliqlari va yig'imlaridan mahalliy byudjetlarga ajratmalar quyi byudjet bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlariga binoan: soliq yoki yig'imning nomi; ajratma uchun belgilangan foiz; ajratilgan summa hisobga olinadi. Shaklga yozuvlar bank muassasalaridan mahalliy byudjetlarga ajratmalar vedomosti olingandan keyin amalga oshiriladi. Oyning tugashi bilan mazkur shakl bo'yicha oy uchun va yil boshidan buyon yakuniy jamlar hisoblab chiqiladi. Har bir byudjet bo'yicha umumdavlat soliqlari va daromadlaridan ajratmalar summasi, har oyda quyi byudjetlarni ijrosi haqidagi oylik hisobotlar bilan taqqoslanib boriladi. Bundan tashqari, umumdavlat soliqlari va daromadlaridan butun hududiy byudjet bo'yicha tushgan va qilingan ajratmalar summasi, bank muassasalarining oylik hisobotlari ma'lumotlari bilan o'zaro solishtiriladi.

2.2. G'aznachilik hududiy bo'limlarida Dalat byudjet xarajatlari kassa ijrosi hisobi.

“Byudjet kodeksi”ga asosan Davlat byudjeti xarajatlari tasdiqlangan byudjetdan mablag' ajratish doirasida quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) byudjet mablag'lari oluvchilarning joriy xarajatlari shaklida;
- 2) joriy byudjet transfertlari shaklida;
- 3) kapital xarajatlar shaklida:

asosiy fondlar va vositalarni (ular bilan bog'liq ishlar va xizmatlar ham shular jumlasiga kiradi) davlat ehtiyojlari uchun olish va takror ishlab chiqarishga;

chet elda davlat ehtiyojlari uchun yer va boshqa mol-mulk olishga;

davlat ehtiyojlari uchun yerga bo'lgan huquqni va boshqa nomoddiy aktivlarni olishga;

davlat zaxiralarini vujudga keltirishga;

4) kapital xarajatlarni qoplash uchun yuridik shaxslarga beriladigan byudjet transfertlari shaklida;

5) rezident-yuridik shaxslarga va chet el davlatlariga beriladigan byudjet ssudalari shaklida;

6) davlat maqsadli jamg'armalariga beriladigan byudjet dotatsiyalari va byudjet ssudalari shaklida;

7) davlat qarzini qaytarish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha to'lovlar shaklida;

8) qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa xarajatlar shaklida.

Respublika byudjetidan xarajatlarni moliyalashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- 1) fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (respublikaga bo'ysunadigan byudjet tashkilotlari bo'yicha);
- 2) ijtimoiy ta'minot;
- 3) mudofaa, milliy xavfsizlik va jamoat tartibini ta'minlash;
- 4) sudlar va prokuratura organlari faoliyatini ta'minlash;

5) davlat zaxirasi va safarbarlik zaxirasini vujudga keltirish hamda ularni saqlash;

6) davlat markazlashtirilgan investitsiyalarini amalga oshirish;

7) davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, O'zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonalari hamda missiyalari faoliyatini ta'minlash;

8) iqtisodiyot turli tarmoqlarining respublikaga bo'ysunadigan byudjet tashkilotlarini saqlash;

9) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli davlat dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

10) yer tuzish, meliorativ, tabiatni muhofaza qilish va epizootiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini amalga oshirish;

11) qishloq xo'jaligi zararkunandalariga qarshi kurash;

12) gidrometeorologiya, do'lga qarshi kurash chora-tadbirlari;

13) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.¹⁷

Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjetidan va mahalliy byudjetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo'ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi:

1) fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo'yicha);

2) ijtimoiy ta'minot;

3) aholini ijtimoiy himoya qilish;

4) Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash;

5) iqtisodiyot turli tarmoqlarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjet tashkilotlarini saqlash;

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi (O'RQ-360-son. 26.12.2013).

6) qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarini amalga oshirish;

7) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.¹⁸

G'aznachilik hududiy bo'linmalari Respublika va mahalliy byudjetlari, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalar, bojxona qumitasi depozit hisobraqami, shuningdek byudjet tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'lari ijrosi kassa xarajatlarini ta'minlaydi. Byudjet tashkilotlarining xarajatlari G'aznachilik hududiy bo'linmalarida ochilgan shaxsiy g'azna hisobraqalaridagi byudjetdan ajratiladigan mablag'lar qoldiqlari doirasida to'lov topshiriqnomalari bo'yicha har bir byudjet tashkilotlari yoki xarajatlar yo'nalishi bo'yicha g'aznachilik bo'linmalarida bank ko'chirmalari va unga ilova qilingan to'lov hujjatlar asosida byudjet tasnifining bo'limlari, boblari, paragraflari va moddalari bo'yicha ochilgan tegishli shaxsiy hisobraqamlarda yuritiladi.

Byudjeti xarajatlarining vazifa jihatidan tasnifi davlat boshqaruvi organlari, mahalliy hokimiyati organlari, shuningdek boshqa byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan bajariladigan asosiy vazifalar bo'yicha xarajatlarni guruhlariga ajratishdan iborat. Xususan, xarajatlarning vazifa jihatidan tasnifi yordamida amalga oshirilayotgan xarajatlar Davlatning aynan qaysi vazifasini bajarish uchun amalga oshirilayotganligini aniq belgilab olishimiz mumkin.

Davlat byudjeti xarajatlarining tashkiliy tasnifi byudjetdan ajratiladigan mablag'lar ularni bevosita oluvchilar o'rtasida taqsimlanishini aks ettiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va tadbirlar turlari bo'yicha xarajatlarni guruhlashdan iborat bo'ladi.

Xarajatlarni iqtisodiy tasnifi O'zbekiston Respublikasi barcha darajadagi byudjetlari xarajatlarini xo'jalik belgilariga, ishlab chiqarish elementlariga ko'ra farqlashni nazarda tutadi, davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan xarajatlarning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqib byudjet xarajatlari yo'nalishlarini belgilab

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi (O'RQ-360-son. 26.12.2013).

beradi. Iqtisodiy xarajatlar tasnifi toifalar, moddalar va kichik moddalar kodlarini o'z ichiga olgan 7 raqamdan iborat. (2.2.4-jadval)

toifa – 2 ta raqam;

modda – 1 ta raqam;

kichik modda – 1 ta raqam;

element – 3 ta raqam.

(2.2.4-jadval)

Davlat byudjetining iqtisodiy xarajatlar tasnifining tuzilmasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:¹⁹

Toifa	Modda va kichik modda	Element
xx	xx	xxx

G'aznachilik hududiy bo'limlari buxgalteriya xodimlari G'azna dasturiy majmuada g'aznachilikka xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki tomonidan taqdim etilgan bank ko'chirmalarga asosan Davlat byudjet, davlat maqsadli jamg'armalar, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'lari, bojxona idoralari g'azna depozit hisobraqamlari mablag'lari bo'yicha kassa xarajatlari kitobi, 274-son shakldagi Memorial order rasmiylashtiriladi. G'aznachilik hududiy bo'limi bosh buxgalteri operatsiya sodir bo'lgan kunning keyingi kundan kechiktirmay dasturiy majmuada kassa xarajatlari bo'yicha Memorial orderdaga kiritilgan yozuvlarni tekshirib tasdiqlaydi.


Moliya boshqarmasi bosh buxgalteri G'azna dasturiy majmuasida g'aznachilik hududiy bo'limlari buxgalteriyasi tomonidan kiritilgan va tasdiqlangan byudjet xarajatlari bo'yicha shakllantirilgan memorial orderdagi yozuvlar, shuningdek analitik va sintetik hisobni muvofiqligini tekshiradi va dasturiy majmuaga "Ijroga" belgisini kiritadi va natijada Memorial orderdagi yozuvlar avtomatik ravishda Bosh jurnal kitobiga va hisobot shakllarida aks ettiriladi. (2.2.5-chizma)

¹⁹ "Byudjet tasnifi" O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010 yil 11 oktyabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, № 2146

G'aznachilik hududiy bo'limlarida xarajatlar hisobini xujjatlashtirishni sxematik ko'rinishini quyidagicha aks ettirish mumkin

(2.2.5 - chizma).²⁰

Moliya organlarida xarajatlar hisobini xujjatlashtirishni sxematik ko'rinishi



Chizmadan shuni ko'rish mumkinki, G'aznachilik hududiy bo'limlarida Davlat byudjeti kassa xarajatlari daftarlari byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha har bir byudjetdan mablag' oluvchi bo'yicha alohida-alohida yuritiladi. Xarajatlar smetasiga kiritilayotgan o'zgartirishlar ro'yxati kerakli rekvizitlari ko'rsatilgan holda, tegishli yozuvlar bilan G'aznachilik hududiy bo'limlarida rasmiylashtiriladi.

Keyinchalik, kassa xarajatlari operatsiyalar amalga oshirilgan sanaga muvofiq: tegishli byudjet xarajatlari summalar yoyilmasida xarajatlarni amalga

²⁰ M.Ostanaqulov Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009

oshirilishida asos bo'lgan to'lov topshiriqnomalari, cheklar va boshqa me'yoriy hujjatlarning rekvizitlari yoziladi.

Tijorat banklari hujjatlari va shaxsiy hisobraqamdan kunlik muomalalar bo'yicha ko'chirmaga ilovalar ma'lumotlari kiritilgandan so'ng xarajatlar jami hisoblanadi va byudjet so'rovnomasigaga ko'ra hisobot sanasi boshiga rejalashtirilgan byudjet mablag'lari qoldiqlari hisoblab chiqariladi.

Rejalashtirilgan byudjet mablag'lariga o'zgartirishlar kiritilganda ushbu o'zgartirishlarni hisobga olgan holda qoldiq chiqariladi.

G'aznachilik hududiy bo'linmalarida byudjet xarajatlari sintetik hisobi 02 "Xarajatlar" nomli hisobraqamida yuritiladi. Ya'ni:

- 020 Byudjet xarajatlari
- 022 Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar
- 023 Bojxona organlari g'azna depozit schyoti mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar
- 025 Davlatning tashqi qarzi mablag'lari hisobidan xarajatlar
- 028 Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar
- 029 Byudjetdan mablag' oluvchilarni boshqa byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar.²¹

"Byudjet xarajatlari" nomli 020-sonli hisobraqamda Respublikasi byudjeti mahalliy byudjetlarning kassa xarajatlari hisobga olinadi. Bu sintetik schyotning debetida davlat byudjeti xarajatlari, kredit tomonida xarajatlarni hisobdan chiqarilishi yoki o'tkazilishi aks ettiriladi.

Respublika byudjeti amalga oshiriladigan xarajatlari hisobini amalga oshirish G'aznachilik va uning hududiy bo'lilari tomonidan amalga oshiriladi.

²¹ S.U.Mehmonov Budjet hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2012.

Respublika byudjetidan amalga oshiriladigan kassa xarajatlari G'aznachilik organlarida to'lov xujjatlari ilova qilingan hisobvaraqdan ko'chirma asos qilingan holda ko'ydagicha buxgalteriya provodkasi beriladi:

Debet 020 - «Byudjet xarajatlari »

Kredit 011 - «Mahalliy byudjeti mablag'lari»

Summa 14230000

Respublika byudjetidan hisobot oyidagi kapital qo'yilmalarga qilingan xarajatlar summasiga Gaznachilik organlarida quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 020 - «Byudjet xarajatlari»

Kredit 013 - «Kapital qo'yilmalarni va boshqa tadbirlarni moliyalashtirish (mablag' bilan ta'minlash) uchun byudjet mablag'lari»

Summa 6535401200

Respublika byudjetidan ajratiladigan kassa xarajatlarini jamlash uchun uchun xarajatlar vedomosti yoki xarajatlar kitobi xizmat qiladi. Xarajatlar kitobda amalga oshirilgan xarajatlar summalar byudjet tasnifi bo'linmalari, toifalari, moddalari va elementlari bo'yicha hisobga olinadi. (2.2.5-jadval)

2.2.5-jadval

Byudjet mablag'lari oluvchilarning byudjet mablag'lari bo'yicha kassa xarajatlari hisobi KITOB

(so'mda)

Hujjat №	Xarajat turlari								
	Jami I guruh bo'yicha	jumladan:		Jami II guruh bo'yicha	jumladan ajratma	jami IV(III) guruh bo'yicha	jumladan		
		Ish xaki	kasallik				elektr	gaz	chikindi
Jami yanvar oy uchun byudjet mablag'lari	104690000	102376	301267	26173000	26173000	24636000	1500000	500000	72000
Jami yil boshidan byudjet mablag'lari	314070000	284267222	1596863	78519000	78519000	43308000	4500000	1500000	216000

Mahalliy byudjetlar kassa xarajatlari, byudjet mablag'larini bosh boshqaruvchilar xarajatlar smetasining ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, G'aznachilik organlarining kapital qo'yilmalarni va boshqa byudjetdan moliyalashtiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish to'g'risidagi hisobotlari, Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklarining kapital qo'yilmalarni va byudjetdan moliyalashtiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun kelib tushgan va ishlatilgan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotnomalari hamda mahalliy byudjet hisobidan korxona va tashkilotlarni moliyalashtirishda byudjet xarajatlarini to'lab berish uchun G'aznachilik bulimlarining to'lov topshiriqnomalari asosida 020 - «Byudjet xarajatlari» schyotida hisobga olinadi.

Mahalliy byudjetlarga kelib tushgan aniqlanmagan tushumlarni viloyat byudjeti kassa xarajatlarini tiklashga olib borish to'lov xujjatlari ilova qilingan hisobvaraqdan ko'chirmaga asosan G'aznachilik hududiy bo'limlarida qo'yidagicha buxgalteriya pravodkasi beriladi:

Debet 041 - «Aniqlanmagan tushumlar»

Kredit 020 - «Byudjet xarajatlari»

Summa 25455500

Mahalliy byudjetlardan byudjet tashkilotlariga berilgan summalar bo'yicha amalga oshirilgan kassa xarajatlarini ma'lumotnomaga asosan o'zaro hisob-kitoblarga olib borish G'aznachilik bo'limlarida ko'yidagicha buxgalteriya pravodkasi beriladi:

Debet 062 - «Byudjetdan mablag' oluvchilar bilan o'zaro hisob kitoblar»

Kredit 020 - «Byudjet xarajatlari»

Summa 28946000

2.3. G'aznachilik xududiy bo'limlarida Dalat byudjet ijrosi natijalari hisobi va hisotlari.

Byudjet ijrosi bo'yicha yilning oxirida, ya'ni 31 dekabrda g'aznachilik hududiy bo'limlari byudjetning ijrosi to'g'risida joriy yil buxgalteriya hisobotini tuzishga kirishadi. Byudjet ijrosi bo'yicha yilning oxirida yillik buxgalteriya hisobotini tuzilishidan oldin g'aznachilik hududiy bo'limlari tomonidan barcha balans hisobotlaridagi ma'lumotlarning haqiqiyliigi, byudjet tranfertlari va ssudalari bo'yicha va byudjetlararo munosabatlar hisob-kitoblarining ahvoli tekshirib ko'riladi. Boshqa byudjetlararo hisob-kitoblar, shuningdek, olingan va berilgan byudjet ssudalari bo'yicha hisob-kitoblar yil oxirigacha tugallanishi kerak, yangi bu hisob-kitoblar bo'yicha qoldiqlar qolmasligi kerak.

Byudjet ijrosi bo'yicha yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzishgacha g'aznachilik hududiy bo'limlari tomonidan yillik hisobotlarni tuzish uchun bir qator tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi:

- 1) barcha byudjet tashkilotlari va muassasalarini tashkilotning smeta xarajatlarlari ijrosining yillik hisobotlarini tuzish bo'yicha tegishli ko'rsatma va maslahatlar beradi;
- 2) byudjet ssudalari va byudjetlararo hisob-kitoblar holatini tekshiradi, shuningdek, ularni moliya yilida tugatish choralarini ko'radi;
- 3) aniqlanmagan tushumlar summolari hisobdan chiqaradi.

Mahalliy byudjetlar ijrosini amalga oshirayotgan g'aznachilik hududiy bo'limlarida moliya yilning dekabr oyida amalga oshirilgan muomalalar bo'yicha memorial-orderlarning ma'lumotlari «Bosh-jurnal» kitobiga (1-k-shakl) kuchirib chiqiladi. «Bosh-jurnal» kitobida dekabr oyi aylanmalari aniqlanadi va buxgalteriya hisobi subschyotlarini yillik yakunlari bo'yicha qoldiq summalar aniqlanadi. (2.3.4 – chizma)

Joriy yil yakunlari bo'yicha byudjet ijrosi bilan bog'liq buxgalteriya muomalalari yopish bo'yicha yakunlash operatsiyalari amalga oshiriladi.


G'aznachilik hududiy bo'limlarida byudjet ijrosi natijalari hisobi 09 "Natijalar" nomli sintetik hisobraqamda yuritiladi. Ya'ni²²

- 090 Byudjet ijrosining natijalari
- 091 Respublika byudjeti oldidagi mahalliy byudjetlarning byudjet ssudalari bo'yicha qarzdorligi
- 092 Respublika byudjetining(ga) mahalliy byudjetlarga (ning) o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha qarzdorligi
- 093 Yuqori mahalliy byudjetlarga quyi mahalliy byudjetlarining byudjet ssudalari bo'yicha qarzdorligi
- 094 Quyi byudjetning(ga) yuqori byudjetga(ning) o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha qarzdorligi
- 095 Davlatning tashqi qarzi bo'yicha mablag'lar tushumi va ishlatilishi natijasi
- 096 Davlat maqsadli jamg'armalari va boshqa byudjetdan tashqari jamg'armalar byudjeti ijrosining natijalari
- 097 Bojxona organlari depozit schyotiga mablag'lar tushumi va sarflanishi ijrosi natijalari
- 098 Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari tushumi va sarflanishi ijrosi natijalari
- 099 Byudjetdan mablag' oluvchilarning byudjetdan tashqari va boshqa mablag'lar tushumi va sarflanishi ijrosi natijalari

²² S.U.Mehmonov Budjet hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012.

2.3.4 – chizma.

Byudjet ijrosi natijalarini buxgalteriya hujjatlarida aks ettirishning sxematik ko'rinishi.



"Byudjet ijrosining natijalari" nomli 090-sonli hisobraqam byudjetlarni ijrosi natijalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Byudjet ijrosi natijalari yilning ohirida 090-sonli hisobraqamning kreditiga 040-"Byudjet daromadlari" hisobraqamdagi qoldiqlarni va 071-"Respublika byudjetidan olingan va berilgan mablag'lar", 072-"Mahalliy byudjetlardan olingan va berilgan mablag'lar" hisobraqamning kredit aylanmalarini, 090-sonli hisobvaraqlarning debetida esa – 020-"Byudjet xarajatlari" hisobraqamning qoldig'ini va 071-sonli va 072-sonli hisobraqamlar bo'yicha debet aylanmalarni hisobdan chiqarish yo'li bilan aniqlanadi.

090-sonli hisobraqamdan olingan kredit qoldig'i byudjet ijrosi natijasi bo'ladi.

Keyingi yilida Respublika va mahalliy byudjetlar parametrlari tasdiqlangandan so'ng 090-"Byudjetlar ijrosi natijalari" hisobraqamdan byudjetning hisobot yilining xarajatlarini qoplash uchun nazarda tutilgan yil boshidagi qoldiq summasi hisobdan chiqariladi, bunda 040-"Byudjetlar daromadlari" hisobraqam kreditlanadi.

Hisobot yili uchun tasdiqlangan byudjetda nazarda tutilgan aylanma kassa mablag'i va byudjet mablag'ining erkin qoldiqlari mavjud bo'lganda 090-“Byudjetlar ijrosi natijalari” hisobraqamida qoladi.

Hisobot yilida g'aznachilik hududiy bo'limlari byudjet tashkilotlarining xarajatlar smetasiga va ularga o'zgartirishlar kiritiganda g'aznachilik hududiy bo'linmalariga, belgilangan muddatlarda, ijro hokimiyat idoralarining qarorlariga asosan ko'zda tutilgan, belgilangan maqsadlarga muvofiq yo'nalishlari va miqdorlari, smetaga kiritiladigan har bir o'zgarishlar holat va byudjet tashkilotlari mablag'larning erkin qoldiqlari summalari miqdori to'g'risida yozma ma'lumot beradi.

G'aznachilik hududiy bo'linmalari, moliya idoralaridan olingan xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlar asosida ushbu mablag'larni 090-“Byudjetlar ijrosi natijalari” hisobraqamdan 040-“Byudjetlar daromadlari” hisobraqamga kreditiga tegishli hisob registrilarida aks ettirgan holda, mazkur chorakka tegishli miqdorlarda, hisobdan chiqarish bo'yicha muomalalarni amalga oshiradi.

Byudjetlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar hamda byudjet ssudalari buyicha qarzlarni byudjet ijrosi natijalariga hisobdan chiqarish, agarda qonun hujjatlarida boshqa holatlar belgilanmagan bo'lsa, man etiladi.

Joriy yilning 31 dekabr sanasi bilan yakuniy operatsiyalarning memorial-orderlari rasmiylashtiriladi. Buxgalteriya hisobi subschyotlarini yillik yakunlanishiga taalluqli quyidagi yakuniy operatsiyalar bo'ladi.

Moliya yilida davlat byudjetiga kelib tushgan daromadlar jami summasiga g'aznachilik hududiy bo'limlarda quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 040 - «Byudjetlar daromadlari»

Kredit 090 - «Byudjetlar ijrosi natijalari»

Summa 254872230000

Moliya yilda mahalliy byudjetlar respublika byudjetidan olingan mablag'lar jami summasiga g'aznachilik hududiy bo'limlarida quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 071 - «Respublika byudjetidan berilgan va olingan mablag'lar»

Kredit 090 - «Byudjetlar ijrosi natijalari»

Summa 5462000000

Moliya yilida quyi mahalliy byudjetlarga yuqori mahalliy byudjetidan o'tkazib berilgan jami summasiga g'aznachilik hududiy bo'limlarida quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 072 - «Mahalliy byudjetlardan berilgan va olingan mablag'lar»

Kredit 090 - «Byudjetlar ijrosi natijalari»

Summa 2456150000

Moliya yilida respublika va mahalliy byudjetlardan amalga oshirilgan kassa xarajatlari jami summasiga g'aznachilik hududiy bo'limlarida quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 090 - «Byudjetlar ijrosi natijalari»

Kredit 020 - «Byudjetlar xarajatlari»

Summa 248564632000

Moliya yilida mahalliy byudjetdan respublika byudjetiga o'tkazib berilgan mablag'lar jami summasiga g'aznachilik hududiy bulimlarida quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 090 - «Byudjetlar ijrosi natijalari»

Kredit 071 - «Respublika byudjetidan berilgan va olingan mablag'lar»

Summa 4563000000

Moliya yilida quyi mahalliy byudjetlardan yuqori mahalliy byudjetiga o'tkazib berilgan mablag'lar jami summasiga g'aznachilik hududiy bo'limlarida quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 090 - «Byudjetlar ijrosi natijalari»

Kredit 072 - «Mahalliy byudjetlardan berilgan va olingan mablag'lar»

Summa 645320000

Moliya yili yakuniy muomalalari bo'yicha tuzilgan buxgalteriya provodkalarining umumiy summalari ««Bosh-jurnal» kitobiga alohida-alohida satrlarga qayd qilib

chiqiladi. «Bosh-jurnal» kitobi (1-k-shakl) bo'yicha yakuniy buxgalteriya provodkalar aylanma summolari aniqlanib chiqiladi va buxgalteriya hisobi subschyotlarini yillik yakunidan so'nggi qoldiq summolari aniqlanadi.

SHunday qilib, yuqorida keltirilgan buxgalteriya provodkalari natijasida 090 - «Byudjetlar ijrosi natijalari» subschyotida hosil bo'lgan kreditli qoldiq summasi mazkur byudjet ijrosi natijasi bo'lib hisoblanadi. Yil oxirida 090 - «Byudjetlar ijrosi natijalari» subschyotida qoldiq qolsa, faqat kreditli qoldiq bo'lishi mumkin xolos. Chunki byudjet ijrosi, odatda, byudjet daromadlari uning xarajatlaridan ortiq bo'lishi kerak.

Bu yillik yakuniy operatsiyalar qayd qilingandan so'ng «Bosh-jurnal» kitobida (1-k-shakl) aniqlangan buxgalteriya hisobi subschyotlari bo'yicha oxirgi qoldiq summalar asosida tegishli buxgalteriya balansi tuziladi. Yangi moliya yilida, yangi yil byudjeti tasdiqlanganda, o'tgan yil yakuni bo'yicha 090 - «Byudjetlar ijrosi natijalari» subschyotining kreditli qoldiq summasi byudjetning yangi yilgi xarajatlarini qoplash uchun yo'naltirilishi rejalashtirilganda, o'tgan moliya yilining yakuni bo'yicha byudjet ijrosi natijasining summasiga g'aznachilik organlarida quyidagi buxgalteriya provodkasi tuziladi:

Debet 090 - «Byudjetlar ijrosi natijalari»

Kredit 040 - «Byudjetlar daromadlari»

Summa

G'aznachilik hududiy bo'limlari buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida belgilangan tartibda byudjet g'azna ijrosi to'g'risidagi buxgalteriya hisobotlarini tuziladi. O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi buyrug'i asosida tasdiqlangan shakllarda va hisobot topshirish muddatlarda byudjeti g'azna ijrosi to'g'risidagi hisobotlar tuzadi va belgilangan davlat organlariga taqdim etadi.

G'aznachilik hududiy bo'limlar byudjet g'azna ijrosi bo'yicha oylik, choraklik va yillik hisobotlarini belgilangan tartibda tuzadi.

Mahalliy byudjetlar g'azna ijrosi bo'yicha oylik hisobotlar byudjetning daromadlari va xarajatlari g'azna ijrosi to'g'risidagi haqiqiy holatini ko'rsatadi.

Buxgalteriya hisobotlarida byudjet xarajatlari byudjet tasnifi bo'limlari va moddalari bo'yicha aks ettirilib, unda aniqlangan reja, haqiqiy kassa xarajatlari, g'aznachilik hududiy bo'limlariga topshirilgan yuridik majburiyatlar, qabul qilingan moliyaviy majburiyatlar hamda ularning bajarilishi yuzasidan foiz ko'rsatkichlari va ular o'rtasidagi farqi aks ettiriladi. Ushbu hisobotda Respublika va mahalliy byudjetlar, byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag'larning hududiy g'azna hisobraqamlaridagi, g'azna tranzit hisobraqamlaridagi qoldiqlari aks ettiriladi.

G'aznachilik hududiy bo'limlari choraklik hisobotni belgilangan shakllarda o'sib boruvchi yakun bo'yicha tuzadi. G'aznachilik hududiy bo'limlarida byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisoboti tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Byudjet ijrosi to'g'risidagi balans;
2. Daromadlar;
3. Xarajatlar;
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti xarajatlarning byudjet tasnifi bo'yicha kassa va xaqiqiy xarajatlarning taqsimlanishi;
5. Byudjet tashkilotlarining tarmoqlari bo'yicha shtatlar va kontingentlari rejasining bajarilishi to'g'risida hisobot;
6. Maqsadli mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risida ma'lumot.²³

Moliya organlari choraklik hisobotlar tarkibida yuqoridagilardan tashqari tasarrufidagi byudjet tashkilotlari bo'yicha quyidagi yig'ma hisobotlarni ham taqdim etadi:

1. Balans;
2. Xarajatlardir smetasining ijrosi haqida hisobot;
3. Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik xaqida ma'lumot;
4. Byudjetdan tashqari rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot;

²³ Qosimova G. Davlat Budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008;

5. Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasi pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot;

6. Ta'lim muassasalarini o'qitishni to'lov-kontrakt shaklidan tushgan mablag'lari harakati to'g'risida hisobot;

7. Boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar harakati to'g'risida hisobot.²⁴

Byudjetlar g'azna ijrosi to'g'risidagi balans g'aznachilik hududiy bo'limlari tomonidan Bosh-jurnal kitobi va aylanma qaydnomalarga asoslanib tuziladi.

G'aznachilik hududiy bo'limlarining Davlat byudjeti g'azna ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansi quyidagi bo'limlardan iboratdir (2.3.6-jadval).

2.3.6 - jadval

Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha buxgalteriya balansi

AKTIV	PASSIV
I. Pul mablag'lari	I. Daromadlar
II. Xarajatlar	II. Olingan ssudalar
III. Berilgan ssudalar	III. Hisoblashuvlar
IV. Hisoblashuvlar	IV. Olingan mablag'lar
V. Berilgan mablag'lar	V. Natijalar
BALANS	BALANS

Bosh-jurnal daftaridagi sintetik schyotlar qoldig'i balansdagi ko'rsatkichlar bilan bir xil bo'ladi.

Byudjet g'azna ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning Daromadlar qismida byudjet tasnifi bo'yicha rejalashtirilgan daromadlar summalari hamda ularni bajarilishi aks ettiriladi. (2.3.7-jadval)

²⁴ Qosimova G. Davlat Budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008;

2.3.7-jadval

**Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar mahalliy byudjeti daromadlari
tarkibi, ming so'm hisobida**

t/r	Daromadlar	Jami	Hissasi, %
1	Bevosita soliqlar - jami	25 013 000	38,5
1.1	Yuridik shaxslardan o'ndiriladigan foyda solig'i	324 522,5	0,5
1.2	Yagona soliq	8 242 871,5	12,7
1.3	Jismoniy shaxslarning daromadidan o'ndiriladigan solig'i	12 875 858,5	19,8
1.4	Tadbirkorlik faoliyati bilan shugullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq	3 569 747,5	5,5
2	Bilvosita soliqlar - jami	19 536 254,5	30,5
2.1	Qo'shilgan qiymat solig'i	4 543 315	7,0
2.2	Aktsiz solig'i	11 098 669,5	17,5
2.3	Davlat boji	3 894 270	6,0
3	Resurs soliqlari va to'lovlari - jami	13 536 500	20,5
3.1	Yuridik shaxslarning mol-mulkidan o'ndiriladigan soliq	1 780 000	2,6
3.2	Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan o'ndiriladigan soliq	5 700 000	8,7
3.3	Er solig'i (yagona yer solig'idan tashqari)	4 350 000	6,7
3.4	Yagona yer solig'i	50 000	0,1
3.5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 656 500	2,4
4	Boshqa daromadlar - jami	6 830 000	10,5
4.1	Jarimalar	3 100 000	4,7
4.2	O'zR IIV Yo'l harakati xavfsizligi Bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan undiriladigan yig'imlar	1 048 000	1,6
4.3	Bozorlar daromadidan tushum	1 707 000	2,6
4.4	Maxalliy yig'imlar	290 000	0,4
4.5	Boshqa tushumlar	685 000	1,2
	Daromadlar jami	64 915 754,5	100

Qarshi shahar mahalliy byudjeti daromadlari 64 915 754,5 ming so'mni tashkil qiladi. Bunda to'g'ri soliqlar 25 013 000 ming so'm bo'lib, jami daromadlar tarkibida 38,5 % ni tashkil qiladi, egri soliqlar 19 536 254,5 ming so'm bo'lib jami daromadlarning 30,5 % ini tashkil qiladi, resurs to'lovlari va mol-mulkga solinadigan soliqlar 13 536 500 ming so'm bo'lib jami daromadlarning 20,5 % ini tashkil qiladi, mahalliy byudjetlarning boshqa daromadlari 6 830 000 ming so'm

bo'lib jami daromadlarning 10,5 % ini tashkil qiladi. Qarshi shahar mahalliy byudjeti daromadlarida bevosita soliqlarning o'lushi katta ekanligini jadval ma'lumotlardan ko'rish mumkin.

Byudjet g'azna ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning xarajatlar qismida byudjet tasnifi xarajatlar bo'yicha aniqlangan reja, moliyalashtirilgan hamda bajarilgan kassa xarajati, haqiqiy xarajat summalari aks ettiriladi. SHuningdek bu hisobotda qabul qilingan yuridik majburiyatlar, moliyaviy majburiyatlar summalari aks ettiriladi. (2.3.8-jadval)

2.3.8-jadval

Qarshi shahar ijtimoiy soha xarajatlarini bajarilishi tahlili

(Mln.so'm)

№	Xarajatlar nomi	2017 yil			2018 yil		
		Reja	Haqiqiy kassa xarajatlari	Rejaning Bajarilish %	Reja	Haqiqiy kassa xarajatlari	Rejaning Bajarilish %
1	Iqtisodiyot xarajatlar	1376498	1325568	96,3%	1945678	1897037	97,5%
Ijtimoiy soha xarajatlari							
1	Umum talim xarajatlari	22011,24	21681,08	98,5%	29376,13	28289,21	96,3%
2	Madaniy va ommaviy axborot vositalari uchun xarajatlar	141,09	132,91	94,2%	182,05	172,04	94,5%
3	Sog'liqni saqlash xarajatlari	4553,77	4271,43	93,8%	6214,17	6127,17	98,6%
4	Ijtimoiy taminot xarajatlari	38,25	36,22	94,7%	46,78	45,05	96,3%
5	Ijtimoiy madaniy tadbirlarga xarajatlar	26573,38	26121,63	98,3%	36649,18	34633,47	94,5

Qarshi shahar G'aznachilik bo'limi tomonidan madaniy va ommaviy axborot vositalari xarajatlar 2017-2018 yillarda mos ravishda 98,6%, 94,2% va 94,5% ga

bajarilgan bo'lib kassa xarajatlari 84,3 mln. so'm, 141,09 mln. so'm va 172,05 mln. so'mni tashkil etgan.

Sog'liqni saqlash xarajatlari ham mahalliy byudjet xarajatlari etarli katta salmog'ga ega bo'lib Qarshi shahrida mazkur xarajatlar 2017, 2018 yillarda deyarli 100% ko'rsatgida bajarilgan.

Sog'liqni saqlash kassa xarajatlari 2017 yilda 4271,43 mln. so'mni, 2018 yilda 6127,17 mln. so'mni tashkil etgan.

Ijtimoiy madaniy tadbirlarga qilinadigan xarajatlar 2017 yilda 26121,63 mln. so'mni tashkil etgan. 2018 yilda kassa xarajatlari ijrosi yaxshi natijaga erishilgan, ya'ni xarajatlarning bajarilishi aniqlangan (34633,47 mln. so'm) rejaga nisbatan 94,5% ga bajarilgan.

Byudjet tashkilotlarining tarmoqlari bo'yicha shtatlar va kontingentlar rejasining bajarilishi to'g'risida hisobotda byudjet tasnifining har bir bo'limini boblari, paragraflari va turkumlari bo'yicha hisobot davri boshiga va oxiriga shtatlarning miqdori keltiriladi. SHuningdek, o'rtacha miqdorda yillik reja va bajarilishi aks ettiriladi.

Byudjet ijrosi to'g'risidagi choraklik hisobotning Maqsadli mablag'lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risida ma'lumotda byudjet tasnifi bo'yicha rezerv fondi mablag'lari sarflanishi va mablag'lar qoldig'i aks ettiriladi.

O'zbekiston Respublikasi G'aznachilik uning hududiy bo'linmalari tomonidan Davlati byudjeti kassa ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi Davlat byudjeti bosh boshqarmasiga tegishli hududiy moliya organlariga quyidagi muddatda taqdim etadi.

G'aznachilik uning hududiy bo'linmalari tomonidan Davlati byudjeti kassa ijrosi to'g'risidagi topshiradigan hisobotlarni ro'yxati (2.3.9 -jadval):²⁵

²⁵ «Yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish to'g'risida»gi nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 3 iyunda 942-son bilan ro'yxatga olingan

(2.3.9 -jadval)

	Hisobot nomi	Davriyligi	Taqdim etish muddati
Davlat byudjeti Bosh boshqarmasiga taqdim etiladigan hisobotlar			
1.	Xududiy g’azna tarnzit schyotlarida mablag’lar qoldig’i va daromadlar tushumi xaqida axborot	Kunlik	
2.	Xududiy g’azna tarnzit schyotlaridagi mablag’lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar xaqida axborot	Kunlik	
3.	O’zbekiston Respublikasi Respublika byudjeti xarajatlari ijrosi bo’yicha hisobot	Choraklik	Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasigacha (dekabr oyidan tashqari)
		Yillik	Keyingi yilning 1 fevraligacha
Tegishli xududiy moliya organlariga taqdim etiladigan hisobotlar			
1	Xududiy g’azna tarnzit schyotlarida mablag’lar qoldig’i va daromadlar tushumi xaqida axborot	Kunlik	
2	Xududiy g’azna tarnzit schyotlaridagi mablag’lar hisobidan amalga oshirilgan xarajatlar xaqida axborot	Kunlik	
3	Qoraqalpog’iston Respublikasi va maxalliy byudjetlar daromadlari ijrosi to’g’risida hisobot	CHoraklik	Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasigacha (dekabr oyidan tashqari)
		Yillik	Keyingi yilning 1 fevraligacha
4	Qoraqalpog’iston Respublikasi va maxalliy byudjetlar xarajatlari ijrosi to’g’risida hisobot	CHoraklik	Hisobot choragidan keyingi oyning 10 sanasigacha (dekabr oyidan tashqari)
		Yillik	Keyingi yilning 1 fevraligacha

III-Bob. G'aznachilik hududiy bo'limlarida Dalat byudjeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisoboni takomillashtirish.

Respublikamizda byudjet sohasida amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar Davlat byudjet sohasida hisob ishlarini usubiy jihatdan takomillashtirishni talab etmoqda. Respublikamizda “Byudjet kodeksi” va “Davlat byudjeti g'azna ijrosi to'g'risidagi” konunlarga asosan byudjet mablag'larining maqsadli sarflanish tizimi yo'lga qo'yilgan. Bunda g'aznachilik hududiy bo'limlari orqali byudjet mablag'lari bo'yicha daromdlar tushumlari va kassa xarajatlari belgilangan tartibda amalga oshirilmoqda. SHuningdek, byudjet mablag'lari bo'yicha byudjet tashkilotlarining tovar yetkazib beruvchilar bilan tuzgan shartnomalari g'aznachilik hududiy bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilmoqda va hosil bo'lgan moliyaviy majburiyatlar ham g'aznachilik bo'limlarida ro'yxatga olinib to'lab berilmoqda. Byudjet ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida byudjet daromadlari va xarajatlari hisobini yuritishning barcha me'yoriy-huquqiy asoslari takomillashtirib borilmoqda.

Xozirgi kunda Davlat byudjetiga turli manbaalardan kelib tushgan mablag'lar bo'yicha buxgalteriya hisobini qo'yidagi vazifalarni hal etishga alohida e'tibor qaratish zarur:

1. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari ijrosi bo'yicha to'liq buxgalteriya hisobi axborotlarini shakllantirish;
2. Byudjet mablag'lari bo'yicha daromadlar va xarajatlar kassa ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan muomalalarni buxgalteriya hisobida xujjatlashtirish va hisob registrlarida aks ettirish;
3. Davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobini yuritishning xalqaro tajribalarini o'rganish va shu asosda ulardan hisob ishlari uslubiyotini takomillashtirishda keng foydalanish.

Xalqaro amaliyotda davlat byudjetini buxgalteriyada hisobga olishning kassa usuli, hisoblash usuli va modifikatsiyalashtirilgan hisoblash usullaridan keng foydalaniladi.

Davlat sektorida buxgalteriya hisobining kassa usul barcha muomalalar bo'yicha pul mablag'larining harakatini qayd etishni kuzda tutadi. Bunda aktivlar va majburiyatlarga doir ko'pgini xo'jalik muomalalari buxgalteriyada hisobga olinmay qoladi.

Davlat sektori buxgalteriya hisobining hisoblash usulida sodir bo'lgan barcha xo'jalik muomalalari usha vaqtning o'zida tan olinadi. Barcha aktivlar qiymati ularning foydalanish davri davomida ularning xizmat qilish muddatiga mutonasib ravishda eskirish hisoblanib, bu eskirish summasi xarajatlarga amortizatsiya sifatida qo'shib boriladi.

Bu usullar dunyoning turli mamlakatlari byudjet daromadlari va xarajatlarini buxgalteriyada hisobga olishda qullanilib kelinmoqda. Masalan Kanadada buxgalteriya hisobining hisoblash usuli qullash uchun tavsiya qilingan. Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari hisoblash usulini qullashni talab etadi.

“Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari” (DSBHXS) davlat sektori instituttsional birliklari tomonidan kupchillik foydalanish uchun mo'ljallangan yillik moliyaviy hisobotlarni (davlat boshqaruv organlarining individual hisobotlarini yoki boshqaruv organlari bo'yicha umumiy hisobotlarini) tayyorlashda foydalanish uchun ishlab chiqiladi. Instituttsional birlik – bu o'z nomidan aktivlarga ega bo'la oladigan, majburiyatlar qabul qila oladigan, iqtisodiy faoliyat va boshqa tarkiblar bilan operatsiyalarni amalga oshira oladigan sub'ektlardir.²⁶

Davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar talablari darajasida tashkil etilishiga erishish g'aznachilik hududiy bo'limlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bizning fikriizcha davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobini takomillashtirish qo'yidagi yo'nalishlarda takomillashtirilishi kerak.

²⁶ M.Ostanaqulov Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009

Birinchi yo'nalish, buxgalteriya hisobini tashkil qilishni uslubiy jihatdan takomillashtirish. Bunda Davlat byudjeti g'azna ijrosi sharoitida byudjet mablag'lari buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-uslubiy xujjatlarni takomillashtirish, ya'ni oliya organlari va g'aznachilik hududiy bo'limlarida byudjet mablag'lari buxgalteriya hisobini tashkil etishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish. SHuningdek byudjet tashkilotlarida ham byudjet mablag'lari buxgalteriya hisobini tartibga solish tizimini alohida shakllantirish talab qilinadi. bunda xalqaro standartlar talablariga e'tibor berish lozim.

Ikkinchi yo'nalish, buxgalteriya hisobini tashkil etishning tashkiliy jihatlariga g'aznachilik hududiy bo'limlarida alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Bunda amaldagi qonun va qonunosti xujjatlari asosida byudjet mablag'lari buxgalteriya hisobini tashkil etishni ta'minlash lozim. Masalan, byudjet mablag'lari g'azna ijrosi buxgalteriya hisobini tashkil etishda ishchi xujjatlarni yuritish tizimi alohida shakllantirilishi kerak, ya'ni hisob siyosatida ular hisobi alohida aks ettirilishi nazarda tutiladi.

Xozirgi vaqtda G'aznachilik hududiy bo'limlarida byudjet mablag'lari bo'yicha hisobot shakllari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xatiga ko'ra tasdiqlangan va shu asosda G'aznachilik hududiy bo'limlarida davriy hisobotlar shakllantirilib kelinmoqda. Bizning fikrimizcha bu taritbni o'zgartirish kerak. Ya'ni byudjetning g'azna ijrosiga oid buxgalteriya hisobotlari shakllarni tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibini o'zida mujassamlashtirgan yo'riqnoma qabul qilinishi uslubiy asoslarni mustaxkalashga asos yaratadi.

Bizning fikrimizcha, davlat byudjeti g'azna ijrosi sharoitida g'aznachilik hududiy bo'limlarida byudjet mablag'lari bo'yicha hisobotlarni axborot imkoniyatlarini takomillashtirish qo'yidagilar asosida ta'minlanadi:

- G'aznachilik hududiy bo'limlarida tuziladigan va taqdi etiladigan hisobot shakllari xalqaro standartlar tajribalari asosida takomillashtirib borish;
- Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni kontseptual asoslarini yanada takomillashtirish;

➤ Davlat byudjeti ijrosi bo'yicha hisobotlarni tuzish, tasdiqlash va taqdim etish bazaviy tamoillarini o'zida aks ettirgan byudjet mablag'lari bo'yicha alohida Davlat sektori buxgalteriya hisobi milliy standartini ishlab chiqish va amaliyotda qullash;

➤ Byudjet g'azna ijrosi sharoitida byudjet mablag'lari bo'yicha hisobot ko'rsatkichlarini tegishli buxgalteriya xujjatlari va hisob registrlari bilan muvofiqligini ta'minlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni shakllantirish va boshqalar.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishimiz davomida o'rganishlarimiz natijasida kelib chiqqan byudjet g'azna ijrosi sharoitida byudjet mablag'lari buxgalteriya xisobini takomillashtirishda qo'yidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

➤ Xalqaro amaliyotda qullaniladigan Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobining hisoblash usuli talablaridan kelib chiqib buxgalteriya hisobini kassa usulidan bosqichma-bosqich hisoblash usuliga o'tkazish;

➤ Davlat byudjeti buxgalteriya hisobini yuritishda g'aznachilik hududiy bo'limlarida buxgalteriya hisobining bajaradigan vazifalarni qonunchilik talablaridan kelib chiqib aniq chegaralarini belgilab berish;

➤ Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi milliy standartlarini ishlab chiqish va joriy qilish

➤ G'aznachilik hududiy bo'limlarida buxgalteriya hisobini yuritishda qullaniladigan g'azna dasturiy majualarini takomillashtirib borish;

➤ Davlat byudjeti g'azna ijrosi yagona schyotlar rejasini takomillashtirish shaklini ishlab chiqish va amaliyotga qullash;

➤ Davlat sektori uchun buxgalteriya xisobi xalqaro standartlarini o'rganish bo'yicha alohida chora-tadbirlarni amalga oshirish

Yuqorida bildirilgan tavsiyalarning inobatga olinishi Davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobini takomillashtirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar.

Davlat byudjetining g'aznachilik tizimi orqali ijro etilishi, byudjet tashkilotlarining mablag'lari yagona g'azna hisobraqamiga qamrab olinishi byudjet mablag'laridan foydalanishni sifat jihatidan yuqoriga ko'tardi. O'zbekiston Respublikasida Davlat moliyasining sifatli boshqarish jarayonida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar jarayonida byudjet ijrosining g'aznachilik tizimida buxgalteriya hisobi uslubiy asoslarini Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari talablari darajasida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishni to'g'ri amalga oshirish va ularning nazoratini amalga oshirish uchun hisob ishlarini tashkil etishga to'g'ri keladi. G'aznachilik hududiy bo'limlarida Davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobini takomillashtirish mavzusidagi bitiru malakaviy ishimizni yoritish davomida bir qator xulosalarni shakllantirishga erishdik:

➤ G'aznachilik hududiy bo'limlarida byudjet mablag'lari buxgalteriya hisobi yuritiladi va me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan holda kunlik, oylik, choraklik va yillik moliyaviy hisobotlar tuziladi;

➤ G'aznachilik bo'limlarida byudjet g'azna ijrosida byudjet mablag'larini hisobga olishning kassa usulidan foydalanadi va hisobiga oid buxgalteriya hisobotlari tegishli yuqori moliya organlariga ma'lum muddatlarda topshiriladi;

➤ Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va ularning xarajatlarini amalga oshirish tartibi qonunchilik bilan tartibga solingan;

Bitiruv malakaviy ishining bajarilish davrida amalga oshirilgan o'rganishlar davomida g'aznachilik hududiy bo'limlarida Davlat byudjeti buxgalteriya hisobini takomillashtirishda qo'yidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq deb qaraymiz:

1. Davlat byudjeti mablag'lari hisobini yuritishda moliya organlari va g'aznachilik hududiy bo'limlarida buxgalteriya hisobining bajaradigan vazifa va funktsiyalarini qonunlar doirasida aniq chegaralarini belgilab berish;

2. Davlat sektori uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlariga mos keladigan milliy standartlarni ishlab chiqish va joriy qilish, xususan byudjet hisobini tashkil etishning bazaviy tamoyillarini aks ettiruvchi alohida standartlar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

3. G'aznachilik hududiy bo'limlarida buxgalteriya hisobini yuritishda qullaniladigan g'azna dasturiy ta'minotining tegishli modullarini takomillashtirib va rivojlantirib borish;

4. G'aznachilik hududiy bo'limlarida Davlat byudjeti g'azna ijrosi buxgalteriya hisobi me'yoriy-huquqiy asoslarini xalqaro talablardan kelib chiqqan holda takomillashtirib borish;

5. G'aznachilik hududiy bo'limlarida byudjet g'azna ijrosi sharoitida byudjet mablag'lari bo'yicha hisobotlar ko'rsatkichlarini tegishli buxgalteriya xujjatlari va hisob registrlari bilan muvofiqligini ta'minlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni shakllantirish;

6. Davlat byudjetining g'azna ijrosi sharoitida hisobot shakllarini unifikatsiya qilish, ya'ni barcha byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha yakuniy moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotlarni yagona shaklga aylantirish.

Umumiy xulosa qilib aytganda urganishlarimiz erishilgan natijalar yuqorida o'z aksini topdi va G'aznachilik hududiy bo'limlarida Davlat byudjeti ijrosi buxgalteriya hisobini takomillashtirish yuzasidan keltirgan taklif va tavsiyalarimizni amaliyotda qullash albatda o'zining ijobiy natijalarini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi–T.: O'zbekiston, 2013
3. O'zbekiston Respublikasi Byudjet tasnifi –T.: O'zbekiston, 2010.
4. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 13 apreldagi «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 2013 yil 26 dekabrda O'RQ-360 - son “Byudjet kodeksi”.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlar

6. “Давлат бюджетининг ғазна ижроси тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президенти Қарори. ПҚ-594-сон, 28.02.2007.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат хариди тизимини оптималлаштириш ва унга кичик бизнес субъектларини жалб қилишни кенгайтириш тўғрисида”ги ПҚ-1475 – сонли Қарори, 07.02.2011 й.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi 414-sonli «Byudjet muassasalarini mablag' bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida»gi qarori va unga ilova qilingan «Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish tartibi», 25.12.2012 yilda kiritilgan o'zgarishlar bilan.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 noyabrdagi 456-sonli «Tender savdolarini tashkil qilishni takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori, 08.11.2012 yilda kiritilgan o'zgarishlar bilan.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 20 martdagi 53-sonli qarori tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligi to'g'risida”gi nizom, 01.04.2011 yilda kiritilgan o'zgarishlar bilan.

11. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Давлат молиясини бошқаришни ислоҳ қилиш лойиҳасини амалга оширишга тайёрланиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 144-сон Қарори 26.04.2002 й.

12. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Осиё тараққиёт банки иштирокида “Давлат молиясини бошқаришни ислоҳ қилиш” лойиҳасини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-721-сон Қарори. 01.11.2007.

13. Хом ашё, материаллар, бутловчи буюмлар ва асбоб-ускуналар харид қилиш бўйича тендер савдолари ўтказиш тўғрисида Низом (Ўзбекистон Республикаси Президентининг 22.12.2009 й. ПҚ-1245-сон Қарори билан тасдиқланган янги таҳрири)

14. Ўзбекистон Республика товар-хом ашё биржасида бошланғич нархни пасайтириш юзасидан электрон аукцион савдоларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2012 йил 6 сентябрдаги 260-сон қарорига илова.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 2009 yil 31 dekabrda 343-sonli “Byudjet tashkilotlari va Davlat unitar korxonalarining asosiy vositalarini hamda qurilishi tugallanmagan ob'ektlarini sotish shuningdek ularni sotishdan tushgan pul mablag'larini taqsimlash tartibi to'g'risidagi Nizom».

16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 2009 yil 8 aprelda 102-sonli “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida».

4. O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining me'yoriy - huquqiy hujjatlari

17. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobini 19-sonli BHMS «Inventarlashni tashkil etish va o'tkazish» milliy standarti (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999 yil 2 noyabrda 833-son bilan ro'yxatga olingan).

18. “Ўзбекистон Республикаси Давлат бюджетидида турувчи ташкилотларнинг харажатлар сметаси ва штатлар жадвалини тузиш, кўриб

чиқиш, тасдиқлаш ва рўйхатдан ўтказиш тартиби тўғрисида Низом”. ЎЗР Адлия вазирлигида 2157-рақам билан рўйхатга олинган. 19.11.2010.

19. Ўзбекистон Республикаси бюджет таснифини қўллаш бўйича Йўриқнома” ЎЗР Молия вазирининг 2010 йил 20 августдаги 65- сон буйруғига илова. ЎЗР Адлия вазирлигида 2146-рақам билан рўйхатга олинган. 19.11.2010.

20. “Budjetdan mablag’ oluvchilarning shaxsiy hisobvaraqlarini O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G’aznachiligida va uning hududiy bo’limlarida yuritish qoidalarini” O’zR AV. tomonidan 2007 yil 5 dekabrda №1746 son bilan ro’yxatdan o’tgan;

21. “Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri Budjeti ijrosining moliya organlarida buxgalteriya hisobi bo’yicha yo’riqnoma” O’zR AV. tomonidan 2006 yil 10 aprelda № 1560 - son bilan ro’yxatdan o’tgan.

22. Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanuvi to’g’risidagi nizom (O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 14 yanvarda 1297-son bilan ro’yxatga olingan).

23. “Davlat Budjeti, Davlat maqsadli va Budjetdan tashqari boshqa jamg’armalari Budjeti g’azna ijrosi buxgalteriya hisobi to’g’risida yo’riqnoma” O’zR Moliya vazirligining 2011 yil 14 yanvardagi 2- sonli buyrug’i tasdiqlangan;

24. «Yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarni taqdim etish to’g’risida»gi nizom. O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2003 yil 3 iyunda 942-son bilan ro’yxatga olingan.

25. “O’zbekiston Respublikasi davlat Budjetini tuzish va ijro etish qoidalarini” O’zR AV. tomonidan 2002 yil 14 martda № 1111- son bilan ro’yxatdan o’tgan;

26. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to’g’risidagi Yo’riqnoma (O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 22 dekabrda 2169-son bilan ro’yxatga olingan).

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

27. Mirziyoev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak”. T.:, 2017

28. Mirziyoev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent. O'zbekiston. 2017

6. Darsliklar va o'quv qullanmalar

28. M. Ostankulov Budget tashkilotlari xarajatlar smetalari ijrosining buxgalteriya xisobi - B.m.: T.:, 2004. - 220 s

29. M.Ostankulov Budget hisobi va Budget ijrosining nazorati. - T.: "Moliya", 2005. - 338 s

30. Sh.N.Fayziev Budget tashkilotlarida buxgalteriya xisobi.O'quv qullanma. - B.m.: T.:TMI, 2005. - 100 s

31. M.Ostanaqulov Budget hisobi. Darslik. – T: Talqin. 2008. 424 b

32. M. Ostonakulov Budget tashkilotlari buxgalteriya xisobidagi oxirgi o'zgarishlar. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008. - 20 s

33. M.Ostanaqulov Davlat Budgeti g'azna ijrosining buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. 412 b

34. M. Ostanaqulov Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. 428 b

35. M.Ostanaqulov Davlat sektori va buxgalteriya hisobi. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009; 132 b

36. A.Ibragimov, B.Sugirbaev Budget nazorati va auditi. – T.: “InfoSOM.UZ”2010.

37. S.U.Mehmonov Budget hisobi. O`quv qo`llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012.

38. S.U.Mehmonov va D.Y.Ubaydullaev Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Sano-standart”, 2013. 456-bet

39. Остонакулов М. Бухгалтерский учёт в школах. -T.: ТГЭУ, 2007; 424 с

40. Вахобов А.В. Сирожиддинова З.Х. Государственный бюджет - T.:

"ИҚТИСОД-МОЛИЯ", 2007; 432 с

41. Qosimova G. Davlat Budjeti ijrosining g'aznachilik tizimi. O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008; 372 b

42. И.В. Самайлов. Бюджетные учреждения: Бухгалтерские учёт, налогообложение, отчётность. - Москва: Глав бух, 2000

43. О.Красноперова Бюджетный учёт – М.: "Гросс Медиа Ферлаг", 2008; 384 с

44. Н.П.Кондраков, И.Н.Кондраков Бухгалтерский учёт в бюджетных организациях. -М.: Проспект, 2006.

45. Т.Қо'чқоров, М.Ҳайдаров «Davlat Budjeti g'azna ijrosining axborot tizimi». O'quv qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2014

46. Z. X. Sirojiddinova. Budjetlararo munosabatlar. O'quv qo'llanma.- T.: info COM. UZ nashriyoti., 2010. - 156 s

47. Ж.А.Кучкаров Принципы организации казначейского исполнения Государственного бюджета Республики Узбекистан. Т.: Издательский дом «Мир экономики и права» - 2005 – 320 с.

48. М. А.Рябова, Д. Г. Айнуллова Бюджетный учёт и отчётность. Москва 2009 г. 450 с

49. М.Е.Аизиковский, Т.С.Маслова «Бухгалтерский учёт в бюджетных учреждениях» : учебное пособие Изд. с изм. – М.: Магистр, 2009. – 154 стр.

7. Интернет сайтлари

[www. Norma. uz](http://www.Norma.uz)

[www. Lex.uz](http://www.Lex.uz)

www.bux.uz

www.ziyonet.uz

[www.mf.uz.](http://www.mf.uz)